Kuch – bilim va tafakkurda

# Ma'rifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2021-yil 3-noyabr, chorshanba № 45 (9370)

Xalq ziyolilari gazetasi




So'nggi paytlarda oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish imkonini beruvchi imtiyozlar ko'paydi. Imtiyozlar bo'lgani yaxshi, ammo ko'paygani kishini o'ylantiradi. Bular hademay teskari ta'sir qilishi ham mumkin. O'tgan o'quv yilida oltin medalga bitirgan, turli tanlovlarda faxrli o'rinlarni egallagan o'quvchimiz o'qishga kirolmadi. Taekvondo bo'yicha O'zbekiston chempioni, zo'rg'a 3 bahoga o'qigan, xulqi haminqadar o'quvchi qizimiz imtiyozdan foydalanib davlat granti orqali o'qishga kirdi. Bu ketishda o'quvchining ilm olishga bo'lgan ishtiyoqi so'nadi-ku…

**Dilnoza NURMATOVA**

Ba'zan maktabda o'quvchilarga haddan ortiq talabni kuchaytirib yuboryapmizmi deyman. Bu ta'lim jihatidan bo'lsa boshqa gap, ammo maktabga krossovka kiyib kelmasligini nazorat qilish kerakmikan? Krossovka kiymasa o'quvchi odobli yoki a'lochi bo'lib qoladimi? Buning na ta'limga, na tarbiyaga aloqasi bor. O'quvchilarning oyoq kiyimiga emas, ta'lim olishiga ko'proq diqqat qarataylik!

**Aktamjon TO'RAQULOV**

Necha kundan buyon direktorimizning ko'zidan panada yurishga harakat qilaman. Nimadir sabab bilan avzoyi buzilsa bo'ldi, o'rta maxsus ma'lumotlilardan alamini oladi. Ba'zida hammasini yig'ishtirib, arizamni shartta yozib ketvoray deyman-u, o'quvchilarimni ko'zim qiymaydi. 10 yillik tajribaga ega o'qituvchi bo'lsam-da, maktabda bemalol ishlay olmayman. Tazyiqlar, kesatiqlar, turli tomondan otilgan toshlarga chidashga to'g'ri keladi.

**Dilrabo MUXTOROVA**



## Adabiyot darsligida yangicha yondashuv

8-9-betlar



## "Kapalakmijozroq hozirgi yoshlar..."

### Erkin Vohidov ijodida personajli lirika

6-bet

## Yuqori sinflarda ham "o'qitish" kerak

3-bet

Yaxshilar yodi

# Samimiy tuyg'ular kuychisi haqida samimiy gaplar

Hayotda shunday insonlar borki, yaxshi asar, yaxshi she'r o'qib zavq oladi. O'zi oddiy dehqon, ishchi yoki boshqa bir kasb egasi, lekin ijoddan, adabiyotdan gap ketsa, to'lqinlanib so'zlaydi. Bunday insonlarni haqiqiy adabiyot shaydosi deyishadi. Bir muallim tanishim bor. U ham ana shunday adabiyotga oshufta insonlardan. Ayniqsa, rahmatli shoirimiz Muhammad Yusuf ijodining haqiqiy muxlisi. Shoirning barcha she'rlarini yoddan bilgan holda, chekka bir qishloqda yashab turib ham, shoir bilan bir necha marotaba uchrashish, uning gurunglari, maslahat va o'gitlarini olishga muvaffaq bo'lgan. Quyidagi bitiklar ham o'sha tanishimning O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf haqidagi xotiralaridan.

* * *

— 80-yillarning boshi edi. Qo'limga yosh adib va shoirlarning ijod namunalari jamlangan bir almanax tushib qoldi. Menga ayniqsa Muhammadjon Yusupov degan yigit yozgan she'r ma'qul bo'ldi. She'rning mazmuni shunday: yigit shaharda o'qiydi, pinhona sevib yurgan qizi esa qishloqda qolgan. Nihoyat, yigit ta'tilga chiqib, ona qishlog'iga qaytadi va to'yning ustidan chiqadi. Ne ko'z bilan ko'rsinki, bu o'zi ko'ngil qo'ygan qizning to'yi edi. Qalbi vayron holda uyga keladi. Hech narsadan bexabar bobosi esa to'yga borganini, to'y zo'r bo'layotganini, ammo negadir kelinchakning ko'zidan yosh tinmaganini nevarasiga so'zlab beradi. Yigit pinhona, ich-ichidan yig'laydi, ammo dardini oshkor qilolmaydi. She'rning oxiri quyidagi misralar bilan tugagan:

*Bilmaydi, eh, bobom bilmaydi,*
*Men, men axir sevardim uni!*
*Saltanatning oti nimaydi,*
*O'sha sochi uzun qizini...*

She'rdagi samimiyat, oddiylik, ohang, sodda bir qishloq yigitining zavol topgan sirli muhabbati, uning ichini kemirayotgan dard mening ham oromimni o'g'irladi. Uzoq vaqt ana shu misralar ta'sirida yurganman. O'shanda ilk bor Muhammadjon Yusupov ismli yosh shoirga hurmatim oshib ketgandi. Keyinchalik bu shoir Muhammad Yusuf nomi bilan adabiyot olamiga kirib kelib, katta dovruq qozondi.

* * *

— Bir kuni kitob javonimdagi eng sevimli kitobim yo'qolganini payqab qoldim. Qanday holatga tushganimni tasavvur ham qilolmaysiz. Axir o'g'ri degan nomard kelib-kelib Muhammad Yusufning o'zim yaqindagina sotib olgan kitobini ham olib ketadimi?! Dunyo ko'zimga bir tutam bo'lib qoldi. Oradan uch-to'rt kun o'tib, kitob topildi. Uni qo'shnimning yaqinda harbiydan qaytgan o'g'li olib ketgan ekan. Nega bunday qilganini so'rasam, ko'ngil qo'ygan qiziga maktub yozish uchun she'r kerak bo'lib qolgani, kitobni kichkina o'g'ilcham olib chiqib berganini aytdi. Avvaliga unga jahlimni sochdim-u, keyin ich-ichimdan titrab ketdim. Axir shoirning bir she'rida o'qiganim — sevgilisiga maktub yozib, she'rlar tizib, lekin unga berishga iymanib, ko'ylagining ko'ksidagi cho'ntagida oylab saqlab yurgan yigit qalbidagi kechinmalar menga juda tanish edi... O'ylab turib, kitobni uning qo'liga tutdim: "Ma, nasib etsa, buni kelinning sepiga solasan. U qiz sendek ko'ngli toza yigitga yo'q deya olmaydi. Mana meni aytdi deysan".

* * *

— Qiziq bir odatim bor: yondaftarchamda o'zim uchratgan nomdor sportchilar, san'atkorlar, shoir va adiblar, xullas, mashhur insonlarning dastxatini to'plab, avaylab saqlab yuraman. Daftarchaning bir varag'ida sevimli shoirim Muhammad Yusufning ham dastxati bor.

1991-yil. Qishloqdagi maktabda muallim bo'lib ishlayman. Qandaydir bir kitobni qidirib, kutubxonaga borgandim, mudira menga:

— Bilasizmi, bu yil Abdulla Oripovning 50 yillik yubileyi keng nishonlanmoqda. Shu munosabat bilan kutubxonamizda ham tadbir tashkil etilar ekan. Unga shoirning o'zi ham kelarmish. Sizdan iltimos, maktab o'quvchilaridan guruh tuzib, shoirning she'rlarini yod oldirsangiz zo'r chiqardi, — deb qoldi.

She'riyat shaydosi emasmanmi, bu men uchun juda katta imkoniyat edi. Darhol maktabga qaytib, o'quvchilarimni tadbirga tayyorlashga kirishib ketdim. Ular sevimli shoirimizning ko'plab she'rlarini o'qiydigan bo'lishdi. Sanobar ismli bir qizchaga esa shoir haqida o'zim yozgan hazil she'rni ham yod oldirdim.

Tadbir ajoyib o'tdi. O'quvchilarim Abdulla Oripov she'rlarini baralla yoddan aytib, o'zlarini ko'rsatdi. Men esa ular adashib ketmasin degan xavotirda edim. Ayniqsa, Sanobar o'zim yozgan she'rni o'qiyotganida bu narsa shoirga yoqarmikan yoki jahli chiqarmikan, degan o'ydan yanada ko'proq hayajonga tushdim. Shukurki, she'r o'qilgandan so'ng davra to'rida o'tirgan Abdulla Oripov kulimsirab, yonidagi Muhammad Yusufning qulog'iga nimalardir dedi. Tadbirdan so'ng, mehmonlarni kuzatayotgan xo'jalik raisi meni yoniga chaqirib: "Domla, juda pishiq odamsiz-da, shunday tanishingiz bor ekan-u, bundog' aytmaysiz", deb qoldi. Men kim haqida gapirayotganini so'rasam, ana o'zlari, siz bilan ko'rishib ketmoqchi ekan, deb nariroqda bizga jilmayib turgan Muhammad Yusufni ko'rsatdi. O'zimga o'zim ishona olmasdim. Ming bir hayajonda uning oldiga bordim. Muhammad Yusuf samimiy so'rashdi. Boyagi o'quvchim aytgan hazil she'r Abdulla Oripovga yoqqani, umuman, tadbir juda chiroyli o'tganini e'tirof etib, buning uchun rahmat aytdi. Men esa vaziyatdan foydalanib daftarchamga dastxat qo'ydirib oldim.

* * *

— Xalqimizda "Tog' tog' bilan uchrashmaydi, odam odam bilan uchrashadi" degan naql bor. Dastxat voqeasidan ikki yil o'tib yana Muhammad Yusuf bilan uchrashdim. O'sha yili malaka oshirish kursida o'qish uchun Toshkentga borgandim. Darsdan chiqib yotoqxonaga borayotsam, yo'l bo'yida taniqli xonandalardan birining konserti afishasiga ko'zim tushib qoldi. Undagi e'tiborimni tortgan narsa, konsertda shoir Muhammad Yusufning ham ishtirok etishi edi. "Shundoq ham Toshkentga kelganman, Muhammad Yusufni bir ko'rib, she'rlarini tinglab ketmasam bo'lmas". Ana shu o'y bilan hamxonamni ham tezlab, chipta oldik va konsertga tushadigan bo'ldik. O'sha yillari shoirning "Turkman qizga uylanaman" nomli she'ri juda mashhur bo'lgan, qaysi davraga borsangiz, shu she'r haqida bahs-munozaralar to'xtamaydigan bir payt edi. Men ham ana shu she'rdan ilhomlanib bir-ikki narsa qoralab qo'ygandim. Hamxonam bilan konsertga kirar ekanmiz, sal narida uch-to'rt kishi bilan gurunglashib turgan shoirga ko'zim tushdi. Shartta borib salomlashmoqchi, o'zimni tanitmoqchi bo'ldim. Ammo qurg'ur xayolimga "Hoy og'ayni, o'zi tupkaning tagidagi bir qishloqdan kelgan muallim bo'lsang, senga kimning ko'zi uchib turibdi, ikki yil avval bir dastxat olganingni bu odam esda saqlab yurarmidi" degan bir gap keldi-yu, borishga istihola qildim. Lekin o'zim sezmagan holda u kishiga tikilib qolgan ekanman. Shoirning ham menga nigohi tushdi-yu, birdan yuziga tabassum yugurdi. "Ey jo'ra, buyoqqa keling, men sizni darrov tanidim", deb yoniga chorladi. Nodonligimdan uyalib ketgan bo'lsamda, sir boy bermay yoniga borib, ko'rishdim. Shoir juda samimiylik bilan hol-ahvol so'radi. Uning ikki yil avval olis bir qishloqda uchrashgan odamini eslab qolganiga qoyil qolgandim. Gap orasida o'zim yozib kelgan she'rni o'qib berdim.

* * *

Bu gaplarni qog'ozga tushirishga undagan narsa shuki, Muhammad Yusufning she'rlari qanchalik samimiy, sof tuyg'ularga, kamtarona orzu-o'ylarga yo'g'rilgan bo'lsa, uning o'zi ham xuddi shunday yorug' qalbli, yuksak insoniy fazilatlarga ega kishi bo'lgan. Muallim tanishimning gurunglarini tinglab, bunga yana bir bor amin bo'ldim. Uning fe'l-atvoridagi samimiylik, kamtarlik she'rlariga ham ko'chgan bo'lsa, ne ajab.

O'rolboy QOBIL
Qamashi

Ta'kid

# Adabiyot o'qituvchisining o'rni

Adabiyot o'qituvchisi Yunus Latifning ta'sirida badiiy adabiyotga mehr qo'yib, badiiyat maydoniga kirib kelgan ijodkorni yaxshi bilamiz. O'zbek adabiyotini "Shinelli yillar", "Oltin zanglamas" kabi noyob durdonalar bilan boyitgan adib adabiyot darsidan, adabiyot o'qituvchisidan ta'sirlanmasa, balki o'zbek kitobxoni shunday bebaho boyliklardan bebahra qolardi. Demak, inson ma'naviy kamolotida adabiyot o'qituvchisining o'rni alohida.

"Adabiyot o'qituvchisining bosh maqsadi — o'quvchiga kitob o'qishni o'rgatish", degan edi taniqli adabiyotshunos olim Omonulla Madayev. Agar e'tibor berayotgan bo'lsangiz, keyingi paytda tez-tez "Hozir hech kim, ayniqsa, yoshlar kitob o'qimayapti va bunga sabab televizor, kompyuter singari texnik vositalarning ko'pligi", degan e'tirozni eshitib qolamiz. Bunga ko'nikib ham bo'ldik. Omonulla Madayevning fikriga asoslanadigan bo'lsak, yoshlarning mutolaadan uzoqlashayotgani — adabiyot o'qituvchilarining "sa'y-harakatlari mevasidir". Darhaqiqat, achchiq bo'lsa ham, tan olish kerak — shunday. Chunki adabiyot darslarida o'rganilayotgan badiiy asarlar tahlilining ko'pincha tayyor variantlari berilishi, obrazlar darslik mualliflari xohishiga ko'ra tahlil qilinishi, o'quvchining asarni o'qib chiqishiga hojat qoldirmaydi. O'quvchining asarni o'rganib chiqishini xohlagan o'qituvchi esa dars o'tishning boshqa usulini topishi kerak. Bunda eng qulay ilg'or pedagogik texnologiya bu — "Tadqiqot-taqdimot" usuli hisoblanadi.

Agar o'qituvchi darslikda muayyan parchasi berilgan asarning to'liq holati bilan tanish bo'lsa, shu asardan eng ta'sirli o'rinni yod aytib bera olsa, o'quvchi o'z-o'zidan bu asarni topib o'qiydi. Hozir topolmagan taqdirida ham adabiyot o'qituvchisining shu holatini umr bo'yi esidan chiqarmaydi.

Bundan tashqari, agar adabiyot o'qituvchisi ijodkor bo'lsa, har darsda o'quvchini kitobga ipsiz bog'laydigan yangi-yangi topilmalar qo'llaydi. O'zbek adabiyotining zabardast vakili O'tkir Hoshimovning quyidagi fikrlarini keltirish orqali ham o'quvchi qalbida kitobga beqiyos mehr uyg'otish mumkin:

"E'tibor berganmisiz-yo'qmi, bilmadim-ku, sizning sadoqatda tengsiz do'stingiz bor. Qachon xohlasangiz, siz bilan hamsuhbat bo'ladi. Shod paytingizda quvonchingizga quvonch qo'shadi. G'amgin pallada dardingizni oladi. Bilmaganingizni o'rgatadi. Adashsangiz, to'g'ri yo'l ko'rsatadi. Yaqin kishilaringiz burilib ketganida ham u sizni tark etmaydi. Xizmati uchun hech nima tama qilmaydi. Yillab unutib, tashlab qo'ysangiz, indamaydi. Hatto, uloqtirib yuborsangiz ham, arazlamaydi. Tag'in chorlasangiz, yetib kelib, xizmatingizni qilaveradi.

Bu do'stning nomi — "kitob".

Jahon adabiyotining buyuk vakili Ernest Seton Tompson asarlarini o'qishda quyidagi jumlalar keltirilsa, o'quvchi beixtiyor shu kitobni izlaydi:

"... Kitob qo'lma-qo'l o'qildi, tik turib o'qildi, ovoz qo'yib o'qildi, kecha-yu kunduz o'qildi. Kitobni butun dunyo o'qidi. Kitob bu qadar ommaviylashib, qo'lma-qo'l bo'lib ketish sabablaridan biri — uni bolalar ham, kattalar ham, keksalar ham birday o'qiydi. Kitob yetti yashar kitobxongayam, yetmish yashar kitobxongayam birday suyukli, birday ardoqlidir...".

Biz bolalarga "Jonivorlar haqida hikoyalar" asarini o'qing, desak, majburlasak, kutilgan natija bo'lmaydi.

Jahon adabiyotida inson ichki olamini tasvirlashning ustamoni sanalgan, o'zlikni anglash, o'zgani tushunish, tarixiy ildizlarni bilish, undan faxrlanish singari tushunchalar ifodasining yorqin namunalarini yarata olgan Ch.Aytmatovning asarlari o'qishga tavsiya qilinganda, arman yozuvchisi Grigor Narikatsining "Musibatnoma" kitobidan "Bu kitob jism-u fig'onimdir mening, Bu kalom jon-u jahonimdir mening" satrlarini keltirish foydadan xoli bo'lmaydi. Shu satrlarning o'ziyoq o'quvchini Ch.Aytmatov ijodiga ipsiz bog'laydi.

11-sinf darsligida berilgan "Qutadg'u bilig" asarini o'tish jarayonida asardagi O'gdulmish va Ozg'urmish suhbatini o'quvchilarga aytib berdim. Saroyga taklif qilingan O'zg'urmishning faylasufona fikrlari sinfdagi deyarli har bir o'quvchini kutubxonaga chorladi. Shukurki, kitob kutubxonada bisyor ekan. Demak, adabiyot "O'tkir yurak kirlarini yuvadigan ma'rifat suvi". Bu suvdan bahramand etadigan esa adabiyot o'qituvchisidir.

Mehri XOLIQOVA,
Qiziltepa tumanidagi
26-maktabning ona tili va
adabiyot fani o'qituvchisi

Mutaxassis minbari

# Yuqori sinflarda ham "o'qitish" kerak

Standart qanchalar aniq, pishiq-puxta bo'lsa, ta'lim sifatini belgilash shuncha oson bo'ladi. Aniqlikda, qat'iylikda raqamlarga teng keladigani yo'q. Rezinkadek cho'ziladigan, egiluvchan, moslashuvchan standartlar bilan o'zimizni o'zimiz aldaymiz, xolos. Tekshiruvchining kayfiyatiga, munosabatiga qarab o'z andozasiga solsa bo'ladigan standartlardan mutlaqo voz kechish lozim. Masalan, ona tilidan o'quvchining savodxonligini diktant orqali tekshiramiz. Baholash me'yori aniq. Nechta xato qilsa, qanday baho olishini o'quvchining o'zi ham, ota-onasi ham biladi. Tortishishga hojat yo'q. 7 tadan ortiq imlo xatoga yo'l qo'ysa o'quvchi "qoniqarsiz" baho olishini biladi. Endigi masala bu me'yorlarga qat'iy amal qilishda. Xatolarga ko'z yumish, sun'iy ravishda bahoni oshirib qo'yish, sho'rodan qolgan "ikki"siz va ikki yilliksiz o'qitish" kabi sarqitlardan hanuzgacha qutula olmayotganimiz achinarlidir. Milliy dastur qanchalar mukammal bo'lmasin, unda belgilangan me'yorlarga amal qilmas ekanmiz, harakatlarimiz samarasiz bo'lib qolaveradi. Kuzgi sinov, sinfda qoldirish kabi amaliyotlarimiz hech qanday istisnosiz ta'lim tizimiga qaytarilmas ekan, islohotdan natija kutish befoyda. Shunday taklifni hukumat oldiga qo'yish va qat'iy qaror qabul qilish vaqti keldi.

O'quvchilarning o'qish tezligi(tempi) ni aniqlash uchun amaldagi Davlat ta'lim standartlarida boshlang'ich 4-sinf bitiruvchilari uchungina me'yor belgilangan:

A1 (Adabiyot fanini o'rganishning boshlang'ich darajasi) bir daqiqada 50–55 so'zni o'qiy oladi;

A1+ (Adabiyot fanini o'rganishning kuchaytirilgan boshlang'ich darajasi) bir daqiqada 55–60 so'zni o'qiy oladi.

Yuqori sinflarda esa bunga mutlaqo e'tibor berilmagan.

Milliy o'quv dasturining "Ona tili" va "Adabiyot" fani bo'yicha loyihadagi kompetensiyalarni ko'zdan kechirib ham ularga duch kelmadik. Avvalo, amaldagi Davlat ta'lim standartlari(2017 yil) da 4-sinf bitiruvchilari uchun belgilangan me'yorlar, ya'ni 1 daqiqada 50–60 so'zni o'qish masalasini durustroq o'ylab ko'raylik. Bolalarga og'irlik qilyaptimi? Bolaning ko'ngliga qarab bu me'yorlardan voz kechamizmi? Matnni tushunsa bo'ldi, savollarga javob berolsa kifoya, desak ahvolimiz o'nglanadimi?

Bundan 20–30 yil oldingi talablarga e'tibor beraylik: 5-sinf o'quvchilari 1 daqiqada 100–110 so'zni o'qishi lozimligi belgilangan ("Umumta'lim maktablari dasturi. O'zbek adabiyoti. V – XI sinflar uchun. Toshkent – "O'qituvchi" nashriyoti – 1993-yil. 15-bet). 50-60 so'zga nisbatan deyarli ikki barobar ko'p. Bu talab bolalarga og'irlik qilyapti, deb o'sha paytda hech kim shikoyat qilmagan. Kechagi kunimizga, ayrimlardek, faqat "qora ko'zoynak" orqali qaramasdan, yutuqlarimizni, muvaffaqiyatlarimizni ham ko'ra olishimiz zarur. Islohotimiz erishganlarimizni yo'qotishga emas, ushlab qolishga, mustahkamlashga, rivojlantirishga xizmat qilsin.

Oldinda bizni nima kutyapti? RAQAMLASHTIRISH!!! Shunday ekan, raqamlardan qochish emas, uni o'rganish, o'zlashtirish, boshqarish zarur. Endi o'quvchilar o'qish tezligini raqamlashtirish masalasiga kelsak. Ovoz chiqarib o'qish bilan, ichida o'qish, ya'ni ko'z bilan o'qish o'rtasida farq bor. Ovoz chiqarib o'qishni tezlashtirmasdan turib ko'z bilan o'qishni tezlashtirish mumkin emas. Axborot manbalarining ko'pligi, ma'lumotlar oqimining tezlashuvi, jadallashuvi har bir kishidan, jumladan, o'quvchilarimizdan ham tezkorlikni talab qiladi. Voqelikdan xabardor bo'lish, xabarga munosabat bildirish o'quvchida shaxsiyat shakllanishining omilidir. Shaxsiyati shakllanmagan bolani mustaqil hayotga tayyor deya olmaymiz. Voqelik ortidan yurish – qoloqlik, voqelik bilan baravar harakatlanish – oqsashlikdir. Voqelikdan o'zib ketish, ya'ni bo'lajak xavf-xatarlarga tayyor turish, hayotdagi turli mashaqqatlarni mardonavor yenga oluvchi irodali shaxslarni shakllantirish bugungi ta'limning bosh vazifasidir. Bunda esa axborotning asosiy manbasi bo'lgan MATN bilan ishlash muhim ahamiyat kasb etadi. Berilgan matnni tez, ravon o'qiydigan bola bilan hijjalab o'qiydigan o'quvchi baravar bo'lolmaydi. Tez o'qish tez tushunishni, tez tushunish tez qaror qabul qilishni ta'minlaydi. Boshqa fanlarni o'zlashtirishda oqsaydigan aksar o'quvchilarning o'qish tempi (tezligi) past bo'lishiga tajribada ko'p duch kelganmiz. O'quvchilar ko'p kitob o'qimasligining boisi ham ravon o'qish ko'nikmasiga ega emasliklaridir. Sinfdan tashqari o'qish uchun tavsiya qilingan asarlarni o'qimaydigan o'quvchilarning ko'pchiligi ham hijjalab o'qiydiganlardan iborat ekanligi sir emas. Hijjalab o'qishning sababi esa ko'p kitob o'qimasliklaridir. Hammasi bir-biriga bog'liq. Avvalo, belgilangan me'yordagi matnni 1 daqiqada o'qiy olmaydigan o'quvchining holati (tibbiy, ruhiy-psixologik) qoniqarlimi? Jismonan sog'lom, aqlida noqislik bo'lmagan o'quvchi uchun me'yordagi tezlikda o'qiy olmaslikning birinchi sababi – erinchoqlik. O'z ustida ishlamaslik, yoki muntazam ishlamaslik. Qadimda notiqlik maktabida o'qish uchun o'zidagi jismoniy noqisliklardan (duduqlik, harflarni maxrajidan chiqarolmaslik v.b.) qutulgan, tinimsiz o'z ustida ishlashi natijasida mohir notiq bo'lib yetishgan kishilar haqidagi hikoyalarni keltirish bilan o'quvchilarda iroda shakllantiriladi. O'z oldiga maqsad qo'yish, unga yetish uchun tartibli, muntazam harakat qilish yo'l-yo'riqlari ko'rsatiladi.

Bugungi jadallashuv, tezlik asrida, vaqt-soniyalar oltindan qimmat bir davrda bizning ona tili va adabiyot fani o'qituvchilarimiz mudrayotgan bir pallada, matematik bo'lsa-da, adabiyotchilarga ham dars bera oladigan jonkuyar pedagog-bloger Isroil Tillaboyevning "Tez o'qish" bo'yicha olib borayotgan izlanishlari tahsinga sazovor. Aytish mumkinki, buni butun Respublikaga tatbiq qilish lozim. Uning shogirdlari bir daqiqada 1000 tadan ortiq so'zni hech qiynalmay o'qiyotirlarki, buni maktablarimizda qo'llasak, ishontirib aytamanki, ulkan yutuqlarni qo'lga kiritishimiz mumkin. Kitob o'qishga qiziqadigan, kitobni sevadigan, kitobsiz hayotini tasavvur qilolmaydigan avlod shakllantirish bugun Davlatning ham, Millatning ham kundalik g'ami, tashvishi bo'lmog'i kerak. Ko'p kitob o'qiydigan bolaning dunyoqarashi ham, fikrlashi ham, o'zini tutishi ham, xulqi-odobi ham kitob o'qimaydigan bolanikidan tubdan farq qilishi hammaga ayon. Shu o'rinda maktablarimiz tez o'qishning boshlang'ich darajasida qolib ketishi sababiga to'xtalmoqchiman.

Bola maktabga kelib, savod chiqarishning dastlabki pallasidagi holatini ko'z oldimizga keltiraylik. U harflarni taniydi, bir-biriga urishtiradi, bo'g'inlab o'qiydi, so'ngra so'zga o'tadi. Tamom. Harflab o'qish, bo'g'inlab o'qish va so'zga o'tish bilan bu mashg'ulotimiz maktabda o'z nihoyasiga yetadi. Ichida o'qish, ya'ni ko'z bilan o'qish mashqlarini olib bormasligimiz, buni nazorat qilmasligimiz oqibatida bolalarimiz shu holatda qolib ketmoqdalar. Harfga bir muddat tikilib qarash bilan so'zga bir muddat tikilish o'rtasida farq qolmagach, harflar o'rniga so'zlarni, bo'g'in o'rniga jumlani, so'z o'rniga qatorni maqsad qilib o'qisak, ko'z bilan o'qishimiz ham tezlashadi. Dastlab ko'rsatkich barmog'imizni qatordagi har bir so'z ustidan tezgina yurgizib olamiz-da, keyingi bosqichda barmog'imizni qatorning o'rtasiga bir muddat qo'yishimizning o'zi kifoya qiladi. Bir muddat harfga qarash, bir muddat bo'g'inga qarash, bir muddat so'zga qarash bilan bir muddat qatorga qarash o'rtasida farq qolmaydi. Shu tartibda qatorlab o'qishga o'tamiz, ya'ni barmog'imizni qatorning o'rtasiga bir muddat qo'yib turamiz-da, pastga tushiraveramiz. Keyingi bosqichda esa xatboshi (abzas), so'ngra butun sahifa-betni qamrab olishga qasd qilinadi. Ekstern (favqulodda) holatlarda varaqlab chiqish bilan kitob haqida muayyan fikrga ega bo'lish mumkinligini ko'pchilik inkor etmasa kerak. Dohiylarga xos bo'lgan varaqlab o'qishni eplay olmasak-da, talantning 99 foizi mehnat, deganlaridek, cho'qqining yuksagi sari intilaveramiz. Zora, har bir o'quvchimiz Isroil Tillaboyevning shogirdlaridek bir daqiqada 1000 tadan ortiq so'zni o'qiy olishga erishsalar, buni uddalasalar... Bunga erishish uchun shunday taklif kiritmoqchiman. 5–11-sinflar kesimida ham o'quvchilarning ovoz chiqarib o'qish tezligi me'yori belgilansin. Summativ baholashda bu e'tiborga olinsin. Mazkur standartni bajara olmagan o'quvchi imtihonga qo'yilmasin. Shundagina o'quvchida ham, ota-ona va jamoatchilikda ham, eng muhimi, maktab pedagogik jamoasida ham Davlat ta'lim standartlariga nisbatan munosabatning ma'qul ko'rinishi shakllanadi. Har bir o'qituvchi (faqat ona tili va adabiyot o'qituvchisigina emas) bunday o'quvchilar bilan jiddiy, tizimli ishlashi natijasida ta'limdagi bu illatdan forig' bo'lamiz. 10 yil davomida tez, ravon o'qishni uddalay olmagan o'quvchi bilan olib borilgan samarali tushuntirish ishlari natijasida 1 yilda o'rtoqlariga yetib olgan, hatto ayrim sinfdoshlaridan o'zib ham ketgan o'quvchilar bo'lganligini eslatib o'taman. Faqat e'tiborsizlik, loqaydlikka chek qo'yilsa bo'ldi.

Bugun maktablarimizda hijjalab o'qiydiganlarning ko'payib ketishi, hatto, ularning maktabni bemalol bitirib chiqib ketayotganlarining asosiy sababi Davlat ta'lim standartlariga munosabatning yomonligidandir. Ayni paytda o'quvchilar baholanishining "Kundalik.com" tizimiga o'tilishi bilan bu muammoni bartaraf etishga harakat qilinayotir.

Shuningdek, amaldagi DTSda ham, muhokamadagi Milliy o'quv dasturining "Ona tili" va "Adabiyot" fani loyihalarida ham o'quvchilar so'z boyligi me'yori belgilanmagan. Yod olish uchun asarlar miqdori amaldagi DTSda mavjud, lekin loyihada bular o'z ifodasini topmagan. Darsdan tashqari mutolaa uchun ham ro'yxat shakllantirilmagan. Bu kabi holatlar loyihada aniq raqamlarda o'z ifodasini topmasa, ko'zlayotgan natijalarimizga erishish gumon bo'lib qolaveradi.

Bugungi jadallashuv, tezlik asrida, vaqt-soniyalar oltindan qimmat bir davrda bizning ona tili va adabiyot fani o'qituvchilarimiz mudrayotgan bir pallada, matematik bo'lsa-da, adabiyotchilarga ham dars bera oladigan jonkuyar pedagog-bloger Isroil Tillaboyevning "Tez o'qish" bo'yicha olib borayotgan izlanishlari tahsinga sazovor. Aytish mumkinki, buni butun Respublikaga tatbiq qilish lozim. Uning shogirdlari bir daqiqada 1000 tadan ortiq so'zni hech qiynalmay o'qiyotirlarki, buni maktablarimizda qo'llasak, ishontirib aytamanki, ulkan yutuqlarni qo'lga kiritishimiz mumkin.

**Qobuljon HAMROLIYEV,**
**pedagogika fanlari nomzodi**

O'qituvchiga yordam

# Nutqiy kompetent:

## o'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirish

O'quvchilarning o'qib tushunish nutqiy ko'nikmasi va malakasini amaliyotda qo'llash layoqatini rivojlantirish ona tili va adabiyot ta'limining ustuvor vazifalaridan biridir. Chunki o'qish jarayonida, eng birinchi navbatda, o'quvchining nutqi o'sadi. Tushunish natijasida tafakkuri boyiydi. O'qib tushunish yangidan yangi g'oyalar yaratilishida poydevor vazifasini o'taydi.

O'quvchining o'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirishga doir taqdim etiladigan yozma nutq shakli – matnlar bilan ishlashda asqatadigan metodik tavsiya va amaliy mashqlarni e'tiboringizga havola etamiz.

➢ O'qib tushunish nutqiy ko'nikmasini rivojlantirishda dastlabki me'yoriy ko'rsatmalar:

➢ Matn sarlavhasiga e'tibor qarating. Sarlavhani tushunib olish matn g'oyasini, mazmunini taxminiy tasavvur qilishga va o'qish davomida tez va oson tushunishga yordam beradi.

➢ Diqqatingizni jamlang. Chalg'ituvchi fikrlardan qoching.

➢ Matnni bir marta o'qib chiqing. So'zlarni xatosiz, ravon o'qishga harakat qiling.

➢ Yengil o'qiladigan matn bo'lsa, o'qish barobarida tasavvuringizni ishga soling.

➢ Agar izohtalab so'zlar bo'lsa, darrov yondaftaringizga qayd eting. So'zni qo'llash variantlarini izohli lug'atdan izlab toping. So'ng matnga qaytib, qaysi variant qo'llanganiga e'tibor qiling.

➢ Tushunish uchun bir necha marta o'qishga ehtiyoj sezilsa, shuncha martalab qayta o'qing.

➢ Matndagi shaklan boshqa bo'lsada, mazmunan bir-birini to'ldirib, uzviy bog'langan fikrlarni jamlang.

➢ Alohida ajralib turgan, qayta takrorlanmagan fikrlarni guruhlang.

➢ Kalit so'zlar va gaplarni saralang. Bu – matn g'oyasini aniqlashning samarali usuli.

➢ Matnni qayta ishlang. O'zingiz bilgan ma'lumotlar bilan qiyoslang yoki tanqidiy tahlil o'tkazing.

➢ Munosabat bildirishda avvaldan tanish bo'lgan, o'zgalar tomonidan botbot aytilgan yechimlardan foydalanmang. Erkin fikringizga va mustaqil yondashuvingizga asoslaning.

➢ Sizda harakat bor, harakat bilan yonma-yon barakat bor! Omad!

### O'QIB TUSHUNISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHDA LINGVISTIK KOMPETENTLILIKNI RIVOJLANTIRISH

Muhim omillardan yana biri, o'qib tushunish nutqiy ko'nikmasini shakllantirish barobarida lingvistik bilimga ega bo'lish: so'z ma'nolarini farqlash, bog'lanish vositalari, matn turlari, tinish belgilarining ishlatilishi, yozma nutqning to'g'riligi, aniqligi va mantiqiyligi, shuningdek, nutqning shakli va mazmuni, talaffuz va imlo me'yorlari, so'z qo'llash me'yorlarini integratsiyalashgan usulda o'rganish va amaliy mashqlarda qo'llash maqsadga muvofiq. Sababi, lingvistik kompetentlilik o'quvchining matnni ravon va tushunarli o'qishi, ilgari surilgan g'oyani tezda ilg'ab olishi, muammoli vaziyatni anglashi, so'z bilimini oshirishi, teran fikrlashi, ijodiy yondashishiga xizmat qiladi.

Masalan, so'z ma'nolarini farqlash; lug'at zaxirasini yaratish; matn turlarini farqlash; tinish belgilarining ishlatilishi sabablarini o'rganish; yozma nutqning to'g'riligi, aniqligi, mantiqiyligini baholash.

➢ Matn g'oyasini aniqlashga doir namunaviy mashq:

Dunyo okeani tabiiy boyliklarning xazinasi hisoblanadi. Bu boyliklar biologik, kimyoviy, ma'danli va yoqilg'i-energetika resurslaridan iborat. Hozir biologik resurslarning 2 % idangina foydalanilmoqda (6-sinf geografiya).

Matnni qismlarga ajratib chiqamiz:

1. Dunyo okeani tabiiy boyliklarning xazinasi hisoblanadi.

2. Bu biologik, kimyoviy, ma'danli va yoqilg'i-energetika resurslaridan iborat.

3. Hozir biologik resurslarning 2 % idangina foydalanilmoqda.

Topshiriq:

A) Okeandagi tabiiy boyliklar quruqlikdagiga nisbatan ko'pligi aytilmoqda.

B) Hozir biologik resurslarning hammasi foydalanishga yaroqsiz bo'lgani uchun atigi 2 foizigina ishlatilmoqda.

D) Dunyo okeanining foydalanilayotgan resurslaridan ko'ra zaxirada turgan resurslari nihoyatda ko'p.

Javoblarni tahlil qilamiz va to'g'ri javobni qabul qilamiz:

A variantda matnga begona so'z bor: quruqlik. Suv va quruqlikning tabiiy boyliklari taqqoslanmagan. Bu dalillanmagan ma'lumot bo'lgani uchun javob qabul qilinmaydi.

B variantda ham noto'g'ri ma'lumot aytilmoqda. Chunki matnda resurlarning yaroqsizligi haqida so'z bormagan. Aksincha uning ko'pligi xususida ma'lumot berilgan. Javob qabul qilinmaydi.

D variantda umumiy xulosa berilyapti, ya'ni okeandagi tabiiy boyliklarning turi hamda miqdori jihatidan zaxiraga ega ekanligi aytilmoqda. Birgina misol qilib, biologik resuslarning bugungi kundagi foydalanish foizi keltirib o'tilgan. **Javob qabul qilinadi.**

➢ Matn mazmunini tushunishga doir namunaviy mashqlar:

### KO'K CHOY

Ko'k choyning asosiy ustunligi shundaki, uning tarkibida kofein miqdori past. Kofeinni haddan tashqari ko'p iste'mol qilish uyqusizlik va ko'ngil aynishini keltirib chiqarishi mumkin. Ko'k choy tarkibida katexinning yuqori miqdori bo'lib, ushbu organik moddalar hujayralarni o'zgarishlardan himoya qiladi. Qora choy tarkibida esa katexin miqdori ancha past.

Choy tarkibida C va R vitaminlari yuqori ko'rsatkichga ega. C vitamini antioksidant bo'lib, uning asosiy vazifasi – organizmdagi oksidlanish jarayonlarini bostirish va shu bilan hujayralarning qarish jarayonini sekinlashtirishdir. C vitamini suyak salomatligi uchun ham zarur hisoblanadi. R vitaminining muhim ta'siri qon tomirlari devorlarini mustahkam qilib, ularni mo'rtlashishdan himoya qiladi.

Ko'k choyning inson salomatligi uchun "harakatlari". Choy tarkibidagi antioksidantlar organizm hujayralarida yoshga bog'liq o'zgarishlar jarayonlarini, boshqacha qilib aytganda, qarishni sekinlashtiradi. Xuddi shu moddalar yurakni himoya qiladi va insultning oldini oladi. Albatta, ba'zi yangi uzilgan meva va ko'katlar tarkibida antioksidantlarning miqdori ancha yuqori, ammo ko'k choy ham juda ko'p miqdordagi moddalarga ega. Tabiiy mevalar yoki salatlarni har doim ham iste'mol qilish imkonimiz yo'q. Ko'k choy esa doimo "qo'limizda". Yog'larni yo'qotadi. Choy energiya ishlab chiqarishga yordam beradi va turg'unlikni oshiradi, kun davomida jismoniy faoliyatga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Miya faoliyatini yaxshilaydi. Choy tarkibidagi tianin moddasi tinchlantiruvchi ta'sirga ega. Bundan tashqari, u sklerozni davolash uchun samarali bo'lib, miyaning shikastlangan joylarini tiklash jarayonida ishtirok etadi. Qon bosimini pasaytiradi. Choyning muhim va foydali ta'siri – uning qon bosimini tushirish qobiliyatidir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kuniga ikki piyola choyni muntazam iste'mol qilib yurish gipertoniya belgilarini kamaytiradi. Qon tomirlarini kuchaytiradi. Ichimlik qondagi zararli xolesterin miqdorini pasaytiradi, trombotsitlar hosil bo'lishini pasaytiradi, bu aterosklerozning oldini oladi.

Ichimlikning foydasini bilish uchun kuniga uch piyola yangi damlangan choyni iste'mol qilish tavsiya etiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, har bir navli choy o'zining saqlash haroratiga muhtoj. Ko'pincha ular 80–90 darajani talab qiladi.

Ko'k choy tarkibidagi qo'shimcha moddalar tanaga toza ichimlik kabi ta'sir qiladi. Yana bir muhim jihati – sut va ko'k choyning kombinatsiyasi. Ularni bir vaqtda iste'mol qilmaslik tavsiya etiladi. Chunki polifenol bilan bog'langan sut oqsili uning foydali ta'sirini kamaytiradi.

Ko'k choy – bu har qanday kasallikdan xalos etadi degani emas. Ichimlik tarkibidagi moddalar faqat tanadagi ba'zi jarayonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. O'zingizning jismoniy holatingizni va mahsulotning tanangizga ta'sirini har doim nazorat qilib boring. (Manba: xabardor.uz)

Savol va topshiriqlar: 1–10.

1-savol. Tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatdiki, ko'k choy organizm uchun nihoyatda foydali xususiyatlarga ega. Lekin bu barcha kasalliklardan xalos etadi, degani emas. Nima uchun bu xulosaga kelingan?

- Sut va ko'k choyni bir vaqtda iste'mol qilish salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.
- Ichimlik tarkibidagi moddalar faqat tanadagi ba'zi jarayonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.
- Ko'k choy tarkibida kofein mavjud, shuning uchun uni kun davomida ichmaslik kerak.
- Choy tarkibidagi antioksidantlar meva va ko'katlarda ko'proq ekanligi isbotlangan.

***Kognitiv jarayon: Matn mazmunini o'qib tushunish.***

***Javob formati: Javobi tanlanadigan.***

***Savolning qiyinlik darajasi: 1-daraja.***

**2-savol.** Ushbu matnning asosiy mazmuni nimadan iborat?

- Ko'k choyni iste'mol qilish me'yorlari haqida fikr yuritilgan.
- Choyning tarkibida kofein miqdori pastligi ta'kidlangan.
- Ko'k choyning inson salomatligi uchun foydali jihatlari yoritilgan.
- Choyning foydali xususiyatlari uning naviga ham bog'liqligi xulosa qilingan.
- ***Kognitiv jarayon: Matn mazmunini o'qib tushunish.***
- ***Javob formati: Javobi tanlanadigan.***
- *Savolning qiyinlik darajasi: 2-daraja.*

**3–5-savol.** Quyidagi faktlar maqola maqsadini ifoda eta olganmi? Har bir fakt uchun HA yoki YO'Q variantini tanlang.

| Ushbu faktlar maqola maqsadini ifoda eta olganmi? | Ha | Yo'q |
|---|---|---|
| Choy tarkibida C va R vitaminlari yuqori ko'rsatkichga ega. | | |
| Kofeinni haddan tashqari ko'p iste'mol qilish uyqusizlik va ko'ngil aynishini keltirib chiqarishi mumkin. | | |
| Choy gipertoniya belgilarini kamaytiradi. | | |

***Kognitiv jarayon: Matn mazmuni va shakliga e'tibor qaratish.***

***Javob formati: Murakkab, ko'p tanlovli.***

***Savolning qiyinlik darajasi: 3-daraja.***

**6-savol.** Ko'k choyning salbiy ta'siri haqida ma'lumotlar berilgan. Ulardan birini yozing.______________________________ ***Kognitiv jarayon: matnda ilgari surilgan g'oyani qiyosiy tahlil qilish.***

***Javob formati: ochiq savol (javobi yoziladigan).***

***Savolning qiyinlik darajasi: 3-daraja.***

**7–10-savol.** Ko'k choy haqidagi jadvaldagi mulohazalar faktmi yoki fikr?

| Mulohazalar faktmi yoki fikr? | Fakt | Fikr |
|---|---|---|
| Choy inson ruhiyatida ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Organizm faoliyatini mo'tadil boshqarishga erishadi. | | |
| Ko'k choy qarishni sekinlashtiradi. | | |
| Har bir navli choy turli saqlash haroratini talab qiladi. | | |
| Ko'k choy tinchlantirish xususiyatiga ega. | | |

**Kognitiv jarayon: Xulosa chiqarish va umumlashtirish.**

**Javob formati: Murakkab, ko'p tanlovli.**

**Savolning qiyinlik darajasi: 3-daraja.**

Bundan tashqari, maqsad va vazifaga ko'ra, bir qancha topshiriqlar tayyorlash mumkin. Masalan, matnga sarlavha qo'yish, xulosaga mos hikmatlar yoki maqollar, matnga begona fikrlar, muammoli vaziyatlar, mantiqiy yondashuvlar misolida o'quvchining o'qib tushunish nutqiy kompetenti rivojlanadi.

Xulosa qilsak, o'qib tushunish nutqiy ko'nikmasining rivoji nafaqat ta'lim tizimida, balki boshqa sohalarning taraqqiyotida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon shaxsning matnni (ma'lumotni) tanlash, tushunish, talqin qilish, mulohaza yuritish, foydalanish, munosabat bildirish, tahlil qilish, qiyoslash, ijodiy, mantiqiy, tanqidiy fikrlash kabi zaruriy kompetentliklarga ega bo'lishini ta'minlaydi. Zero, shaxs jamiyatda real hayotiy vaziyatlarga bardosh bera oladigan kadr bo'lishi davr talabidir.

Dildor NURMUHAMMEDOVA,
Termiz shahridagi
23-maktab o'qituvchisi

Talqin

# Qodiriy va Cho'lpon: tanlanmagan yo'l

Ma'rifat deb ataluvchi bebaho ne'mat har bir davrda jamiyatning hol-ahvoliga, umumiy ma'naviy ehtiyojning qay darajada ekanligiga qarab turfa mazmun va mohiyat kasb etadi, alhosil targ'ib qilinadi. Chunonchi XX asr boshlarida xalqning ijtimoiy holatidan kelib chiqqan holda dunyoni bilish, taraqqiyotga yetkazuvchi ilmni egallash, xurofot va bid'atlardan ongli ravishda qutulishga nisbatan ma'rifat atamasi ishlatildi. Xalqning ma'naviy jihatdan yetakchi farzandlari insonlarning ayni ma'nodagi ma'rifatni egallagan shaxs bo'lib yetishishlari uchun harakat qildilar. Bu yo'lda Abdulla Avloniy, Behbudiy, Fitrat, Munavvarqori, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Botu, Avaz O'tar kabi minglab insonlar o'z mol-u jonlarini tikdilar. Bu jonkuyarlar xalqning jaholat botqog'idan chiqishi, erksizlik bo'yinturug'ini yechishi uchun ma'rifatni yagona yo'l deb bildilar. Ammo ularning mayoq deb sanagan "ma'rifat"i bir-biridan birozgina, lekin jiddiy farqqa ega edi. Bu farq sohibi aql – jadid ma'rifatchilarini ko'z ilg'amas holda ikki guruhga bo'lib turardi.

XX asr boshlarida eng ko'zga ko'ringan ikki daho ijodkor Abdulla Qodiriy va Cho'lpon edi. Biz aytib o'tgan farq aynan mana shu ikki ma'rifatparvar ijodida yaqqol namoyon bo'ldi. Hech shubha yo'qki, boshqa zamondosh jadidlar ham bu ikki toifaning biriga u yoki bu darajada mansub edilar. Xo'sh, bu farq aynan nima edi?

O'tgan asrning 20-yillarida xalqimiz ikki buyuk xazina – "O'tkan kunlar" hamda "Kecha va kunduz" romanlariga sohib chiqdi. Millatimiz bu asarlarni jonlaridek sevdi, payti keldiki, jonini qurbon qilib saqladi. Mana shu ikki nodir asar qandoq ma'rifatni egallamoq kerak, buning uchun ne qilmoq darkor kabi savollarga aniq-tiniq javob berdi.

Yozmoqning siri bor, usuli bor. Usul bilgan o'quvchi yozuvchining aytarini tez fahmlaydi. Bu sir, bu usullarning birisi shuki, ijodkor muayyan masala yuzasidan aytmoqchi bo'lgan qarorini bir obrazga yuklaydi va shu obrazni o'z xulosasiga ko'ra harakatga keltiradi. Qodiriy va Cho'lpon Otabek hamda Miryoqubning zuvalasini aynan mana shuning uchun pishitdilar. Ma'rifat otliq javharning qandoq bo'lishi haqidagi tugal xulosalarini shu ikki qahramon vositasida anglatdilar.

Abdulla Qodiriy Otabek ma'rifatini bizga andoza qilib ko'rsatdi. Xo'sh, so'zimiz avvalida ta'rif etilgan ma'rifat Otabekda qanday edi?

Avvalo, Otabek zamonaning holidan xabardor, davlat va siyosat borasida o'ziga yarasha bilimga ega inson. Buni Otabekning shu gaplari ham tasdiqlaydi:

"Shamayga bormasimdan ilgari o'z hukmdorlig'imizni boshqalar ham shundaydir, deb o'ylagan edim, – dedi bek, – lekin Shamay mani fikrimni ost-ust qilib, o'zimni ham butunlay boshqa kishi yasadi. Men o'risning idora ishlarini ko'rib, o'z idoramizning xuddi bir o'yinchoq bo'lg'anlig'ini iqror etishka majbur bo'ldim... Bizning idoramiz bu kungi tartibsizligi bilan ketabersa, holimizning nima bo'lishig'a aqlim yetmay qoldi. Shamayda ekanman, qanotim bo'lsa, vatanga uchsam, to'ppa-to'g'ri xon o'rdasiga tushsam-da, o'risning hukumat qonunlarini birma-bir arz qilsam, xon ham arzimni tinglasa-da, barcha elga yorlig' yozib o'risning idora tartibini dasturilamal etishka buyursa, men ham bir oy ichida o'z elimni o'risniki bilan bir qatorda ko'rsam... Ammo o'z elimga qaytib ko'rdimki, Shamayda o'ylag'anlarim, oshiqqanlarim shirin bir xayol emish. Bu yerda so'zimni eshitkuchi birov ham bo'lmadi, bo'lsalar ham: "Sening orzungni shu xonlar eshitadimi, shu beklar ijro qiladimi?" – deb meni ma'yus qildilar. Avvaliga men ularning gapiga bovar qilmay yursam, so'ngg'idan to'g'ri so'zni aytkanlarini bildim. Darhaqiqat, mozoristonda "hayya alalfalah" xitobini kim eshitar edi".

Bu Otabekning (aslida Qodiriyning) davlat boshqaruvi haqidagi xulosasi. Demak, Otabek boshqaruvni ortiq eski tartibda olib borib bo'lmaydi, deya hisoblaydi. Bu qaror, o'tgan asrdagi ma'rifatning bir qismi xolos, aniqroq aytsak, ma'rifatga olib boruvchi siyosiy yo'l. Otabek bu yo'ldagi asosiy to'siq o'zaro nizolar deb biladi. Suhbat davomida u shunday fikrni o'rtaga tashlaydi:

"Manimcha, o'risning bizdan yuqoriligi uning ittifoqidan bo'lsa kerak, – dedi Otabek, – ammo bizning kundan kunga orqag'a ketishimizga o'zaro nizomiz sabab bo'lmoqda, deb o'ylayman".

Ushbular bilan Otabek – Qodiriyning siyosat, uning ma'rifatga beradigan foydasi xususidagi xulosasini yakunlaymiz. Zero, dono ko'z tomchida dengizni ko'rar, deydilar.

Ikkinchi masala Otabekning tahsilidir. Zero, u Toshkandning eng oldi ilm maskani – Beklarbegi madrasasida ta'lim oldi. Qodiriy Yusufbek hoji qo'li bilan Otabekni madrasa ostonasidan savdoga olib o'tar ekan, har bir kasb sohibi, avvalo, ilm olmog'i, o'z sohasining shariatini tugal egallamog'i lozim, deydi. Yo'qsa, Toshkandning eng obro'li kishisi "Padarkush"dagilar kabi "o'g'lim hisobni bilsa yetar demasmi?"

Qodiriy Otabekni eng birinchi navbatda ajdodlar merosi bilan ma'rifatlantiradi. Zero, Fuzuliyni mutolaa qiladigan kishi tafakkuri yuksak, didi nozik inson bo'ladi.

Qodiriy qahramoni orqali ma'rifatga qay yo'sin erishishnigina emas, erishgan odamning tavri qandoq bo'lishini-da ko'rsatadi. Asl ma'ruf odil, haqgo'y, zulmdan yiroq insondir. Bu – Qodiriy ma'rifatlilikdan kutgan natijadir. Xo'sh, kim haqgo'y, odil, zulmdan qochuvchi bo'ladi? Shubhasiz, Robbisini tanigan, undan hayo qilgan insongina. Anglashiladiki, Qodiriy ma'rifati Ollohni tanishdir. Axir, bekning o'g'li bo'laturib, jabrdiyda xalqning tarafini olmadimi, xon qarshisida, Musulmonqul yonida garchi o'lim xavf solib turgan bo'lsa-da, haqni aytuvchi bo'lmadimi, oilaning nozik munosabatlarida adl ko'rgazishga tirishmadimi? Bular ma'rifatning ayni o'zginasi edi. Qodiriy ma'rifatli inson deganda Robbisini tanigan, shunga ko'ra xaloyiq bilan muomalani tutadigan insonni tushundi.

Qodiriy ma'rifat uchun eng muhim omil deb hisoblagan jihatni Otabek borasidagi so'zimiz so'ngiga oldik. Toki o'quvchi buni yaxshi anglasin, miyasiga va qalbiga o'chmas qilib yozsin. Bu omil – Yusufbek hoji. Qodiriy aytmoqchiki, agar din-u diyonati mustahkam, har borada adolatni, xalqparvarlikni ikki qanot qilgan, Haqdan hayo qiluvchi yo'lboshchi – orif ustoz, ota bo'lmas ekan, ma'rifat ko'chasi abadulabad begonadir. Zero, Otabekka har jihatda o'rnak bo'lgan, zulm tufayli Azizbekka qarshi bosh ko'targan, raiyatga otalik qilgan, uyidan subutsizlik chiqmasligi uchun o'g'lini ikkinchi turmushga undagan haqiqiy ma'rifat sohibi Yusufbek hoji edi.

Yusufbek hoji qandoq inson edi? Hoji so'zi bilan o'yi bir, iymoni basalomat, vatanini sevguvchi bir inson edi. Yusufbek hojini bilmoq uchun uning ushbu gaplariga quloq tutmoq yetarli:

"Men ko'b umrimni shu yurtning tinchlig'i va fuqaroning osoyishi uchun sarf qilib, o'zimga azobdan boshqa hech bir qanoat hosil qilolmadim. Ittifoqni ne el ekanini bilmagan, yolg'iz o'z manfaati shaxsiyasi yo'lida bir-birini yeb, ichkan mansabparast, dunyoparast va shuhratparast muttahamlar Turkiston tuprog'idan yo'qolmay turib, bizning odam bo'lishimizg'a aqlim yetmay qoldi. Biz shu holda ketadirgan, bir-birimizning tegimizga suv quyadirg'an bo'lsaq yaqindirki, o'rus istibdodi o'zining iflos oyog'i bilan Turkistonimizni bulg'atar va biz bo'lsaq o'z qo'limiz bilan kelgusi naslimizning bo'ynig'a o'rus bo'yindirig'ini kiydirgan bo'larmiz. O'z naslini o'z qo'li bilan kofir qo'lig'a tutqin qilib topshirguchi – biz ko'r va aqlsiz otalarg'a Xudoning la'nati, albatta, tushar, o'g'lim. Bobolarning muqaddas gavdasi madfun Turkistonimizni to'ng'uzxona qilishg'a hozirlang'an biz itlar Yaratguchining qahriga, albatta, yo'liqarmiz! Temur Ko'ragon kabi dohiylarning, Mirzo Bobur kabi fotihlarning, Forobiy, Ulug'bek va Ali Sino kabi olimlarning o'sib-ungan va nash'u namo qilg'anlari bir o'lkani halokat chuqurig'a qarab sudrag'uvchi, albatta, Tangrining qahrig'a sazovordir, o'g'lim! Gunohsiz bechoralarni bo'g'izlab, bolalar yatimxonalarini vayron qilg'uchi zolimlar – qurtlar va qushlar, yerdan o'sib chiqg'an giyohlar qarg'ishig'a nishonadir, o'g'lim!..".

Qodiriy xalq uchun Yusufbek hojilar – ma'rifatli ustozlar kerak, deydi. Yusufbek hojisi bor millat, Yusufbek hojilarga ergashgan millat saodatga erishibdi, aksinchasi bo'lsa, xorlik qurshab olibdi.

"Kecha va kunduz" shuhrat borasida "O'tkan kunlar"ga yetadi. Asar badiiyat, obrazlar borasida nihoyatda go'zal. Ammo biz e'tibor qaratadigan jihat Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lponning ushbu asari vositasida ma'rifat va ma'rifatli inson haqidagi qarashlari.

So'zimiz avvalida, Cho'lpon ma'rifatli inson obrazi uchun Miryoqubni tanlagan degan edik. Xo'sh, Miryoqub kim edi? Miryoqub epaqa edi. Chunki u aralashgan ish bitmay qolmas edi. Buning otini ishbilarmon deydilar. Cho'lpon istagan ma'rifatli inson aqlli, ishbilarmon, har borada ovrupoliklar bilan tenglasha oladigan inson. Darhaqiqat, asar yozilgan davrda xalqimiz aynan ayni xususiyatlarga ega millat vakillariga muhtoj edi. Zero, mustamlaka zulmi, tengsizlik, jaholat kabi illatlardan qutulishda bunday insonlar suv va havodek zarur.

Miryoqub kishi aqli yetmas tadbir bilan vatan tuprog'ini – eng asosiy yo'llarni rus ma'murlaridan oldin qo'lga kiritdi. Siyosiy o'yinlarda u sezdirmasdan harakat qilar edi. Cho'lpon azbaroyi vatanini bosqinchilardan qizg'angani uchun Miryoqubning ishini alqaydi.

Miryoqub vaqt isrofini sevmaydigan inson. Uning hech bir oni bekor ketmaydi. Bu jihat hayoti bekorchilik, qimor, ko'pkari, ichkilikbozlik kabi foydasiz ishlar bilan band jamiyatga o'rnak edi. Ammo shularning o'zi yetarlimidi? Cho'lpon nechun epaqani tanladi? Buning javobi bor, biroq undan oldin epaqani yaxshilab tanimoq lozim.

Epaqa noyib to'ra ta'biri bilan aytganda, amerikaliklarga o'xshaydigan inson. Uning aqli, foydasi bor narsada hozir bo'lishi, yechilmayotgan ishlarga yechim topishi bu xulosaga sabab. Ammo uning topayotgan yechimlari to'g'rilikdan yiroq. Birgina qishloq yigitlarini Umaraliboy bilan Yodgorxo'jaga qarshi gijgijlashi aqlan topilma, xulqan yo'ldan toyilmadir.

Epaqa kim? Epaqa valine'matining ayoli bilan zino qilishdan qochmaydigan odam.

Epaqa kim? Epaqa Cho'lpon qo'li bilan poyezdda o'zgarishga uchragan yangi jadid.

Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon zamonaning ma'ruf odami deb dunyo va taraqqiyot havosini tuygan odamni bildi. Zotan, Miryoqub qanchalik o'zgarsa-da, din-u diyonati oqsoq inson.

Xo'sh, shuning o'zi Cho'lponning ma'rifat haqidagi qarashlarini tugal ko'rsatadimi? Yo'q, Cho'lpon – Epaqa eng dahshatli qarorga keyinroq keldi:

– Bilasanmi, Maryam, mening ikki qizim, bir o'g'lim bor.

– Bo'lsin.

– Katta qizim 12 da, qolganlari undan kichik...

– Juda yaxshi.

– Bolalarning saodati uchun xotinimga javob berishga to'g'ri keladi. Boshqa chora yo'q. Qizlarni-ku bermas. o'g'limni olaman-u, tarbiyasini senga topshiraman. Nima deysan?

Cho'lponning xalqni ma'rifatli qilish uchun topgan yechimi – mana shu. O'rgatuvchilikni, tarbiyachilikni boshqa millat, boshqa din vakiliga tutib bo'lsa-da, ziyoli bo'lish. Ha, bu farzandni bilimli, dunyo tanigan, taraqqiyotga xizmat qiladigan inson etib tarbiyalar, lekin unda iymony-e'tiqod, islomiy axloq nihoyatda orqada qoladi, balki bo'lmas ham.

Taassufki, shu paytgacha va ayni paytda ham ma'rifat Epaqa tushungan va qabul qilgan shaklda singdirib kelindi. Kamiga esa, ajdodlar merosi, qadriyatlar nomi ostida asl ma'rifatga yot tushunchalar ham qabul qilinmoqda. Asl qadriyat sof dinimiz bo'lgani holda, xalq orasida yashab kelayotgan, har bir odat, an'anani ololmaymiz. Zero, ular orasida to'g'risi-da bor, yanglishi-da.

Inson ilmli bo'lsagina, ma'rifatli bo'lib qolmaydi. Qachonki, Robbisini tanisa, olayotgan ilmi e'tiqodiga suyansa, o'shandagina bu maqomga sohib chiqqay. Zero, Qodiriy ham ma'rifatning shu yo'lini to'g'ri deb topgan edi. Bugun Qodiriy yo'lini tanlaydigan, millatning Yusufbek hojisi, Otabegi, Kumushi bo'ladigan payt.

**Ibrohim JOVLIYEV,**
**Chiroqchi tumanidagi**
**150-maktabning ona tili va adabiyot**
**o'qituvchisi**

Bir she'r tahlili

# "Kapalakmijozroq hozirgi yoshlar..."

## Erkin Vohidov ijodida personajli lirika

She'rning asosiy obrazi lirik qahramon, ya'ni lirik subyekt bo'lib, uning ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari biror hayotiy vaziyatda ochiladi. Agar she'rga personaj kirib kelsa, shoirning imkoniyatlari kengayadi. Uning o'y-fikrlari lirik qahramonning his-tuyg'ulari, personajning voqelikka munosabatida namoyon bo'ladi. Asarga kirib kelgan personaj lirik qahramonni to'ldiradi.

Xalqimizning suyukli shoiri Erkin Vohidov ijodida ham personajli lirikaning juda yaxshi namunalari uchraydi. Uning "Hozirgi yoshlar" she'rini bilmagan odam bo'lmasa kerak. Unda lirik qahramon shoir bo'lsa, salkam yuz yoshga kirgan mo'ysafid personajdir. Mo'ysafid zamon yoshlarining chidamsiz, yengiltabiat bo'lib borayotganidan kuyunadi, axir, ular hayotning ne-ne qiyinchiliklarini boshdan kechirgan.

*"Yurt tinch bo'lsin,*
*Bir gap bo'lsa mabodo,*
*Bardosh berarmikan*
*Hozirgi yoshlar!",*

deya o'zining alg'ov-dalg'ovlarga to'la hayotini ko'z oldiga keltiradi:

*Tohirni halitdan tinch qo'ymas qizlar,*
*Yarim tunda qaytar uyga hamisha,*
*"Uncha bo'lmasak ham ilmda bizlar,*
*Ammo kuchli edi odob, andisha.*
*Birovning qiziga sal qarab qo'ysak,*
*Bizlar atalardik sho'x-u beboshlar.*
*Ba'zi kinolarmi buzmoqda andak,*
*Kapalakmijozroq hozirgi yoshlar...".*

Erkin Vohidov she'rlariga kirib kelayotdan personajlar mukammal, hayot qiyinchiliklarini ko'p ko'rgan, shu qiyinchiliklar tufayli hayotning qadriga yetib yashagan insonlardir. "Dehli aeroportida bo'lgan voqea" she'riga nazar solaylik. Undagi keksa shoir ham urush qatnashchisi, uning ko'kragida shu urushdan "yodgorlik" qolgan, shu sababli aeroportda noqulay holga tushadi va tekshiruvchiga tushuntiradi:

*Shunda tarjimonga der keksa shoir:*
*"Tushuntir, hech narsa yashirganim yo'q,*
*Sergak apparati ilg'agan temir —*
*Ko'kragim oldida qolib ketgan o'q.*
*Qirq yil yashayapman o'sha o'q bilan*
*Borligin bildirar bahor chog'lari...*
*U menga Smolensk jangidan yodgor,*
*Urush o'chmas qilib qoldirgan dastxat".*

Ko'rib turibmizki, keksa shoir ko'kragida o'q bilan yashayotganiga achinishlarini istamaydi, u bunga ko'ngan, lekin ishonishlarini xohlaydi. U his qilgan tuyg'ularni hamma ham seza olmaydi. Bizningcha, agar shoir boshidan kechgan voqealar lirik qahramon tilidan bayon qilinganida o'quvchida bunchalik xayrixohlik uyg'otmagan bo'lardi.

Shoirning amerikalik olima I.L.Sirtaytasga atab yozgan "Ilza xonim" nomli she'rida personaj sifatida shoir kirib keladi. U amerikalik olimaning o'zbek tiliga bo'lgan hurmatini ko'rib lol qoladi. Urf-odatlarimizni yaxshi o'rgangan ayol atrofidagi yoshlarga ham o'zbek tilini o'rgatgan, bu xalqqa nisbatan hurmat uyg'otgan. Uning o'zga xalqqa munosabati shoirning ko'nglini tog'day ko'taradi.

*Sizga egay podsholarning ham*
*Huzurida egmagan boshim,*

deya xonimga tasannolar aytadi.

Yumoristik personajlar xatti-harakati yengil kulgi qo'zg'aydi va o'quvchida zavq uyg'otadi. "Tangri va yamoqchi" she'ridagi savol-javob bunga bir misol:

*"Yamoqchi Tangriga derkan tinmayin:*
*— Ey Xudo!*
*Menga ham bir qayrilib boq!*
*Chorig'ing so'kilsa, tikib berayin,*
*Kavushing teshilsa, solayin yamoq.*
*Tangri debdi bir kun:*
*— Ol boqiy umr,*
*Farishta bo'lursan!*
*— E, qo'y kerakmas!*
*Umr berma menga, ber ozroq ko'mir,*
*Ustiga bir chetan,*
*Yantoq bo'lsa bas".*

Ko'rib turganimizdek, Erkin Vohidov personajlari turli-tuman. Ular asarda lirik qahramon bilan teng ishtirok etib, qahramonning his-tuyg'ularini to'laroq ifodalashga yordam beradi.

**Ma'sumaxon JO'RAYEVA,**
Izboskan tumanidagi
3-maktab o'qituvchisi
**Gulbahor ALIYEVA,**
tumandagi 42-maktab o'qituvchisi

Yodnoma

# Abadiyatga daxldor satrlar

Shunday taqdir egalari borki, oz umr ko'rgan bo'lsa-da, o'z ijodiy ishlari bilan nafaqat tarix zarvaraqlarida, balki insonlar qalbida ham o'chmas iz qoldirgan. Rus shoiri Lermontovga nisbatan "Shoirlar qishloqlarda tug'iladi, shaharlarda vafot etadi", Usmon Nosirga nisbatan "favqulodda iste'dodli shoir" degan ta'rif bejiz berilmagan. O'tkir Hoshimov esa "Ijodkorda qishloqning yuragi, shaharning aqli bo'lsin", degandi. Chori Avaz esa bu ta'riflarning hammasiga mos haqiqiy shoir edi.

*Sen kelsang, qaytadan*
*gullagay xazon,*
*Sen kelsang, lojuvard*
*tuyulgay osmon.*
*Sen kelsang, eng dilbar*
*yangragay navo,*
*Sen kelsang, bag'rimda tirilar dunyo.*

Chori Avaz 1957-yilning 11-dekabrida, shoirning o'zi ta'kidlaganidek, mittigina Tojik qishlog'ida ishchi oilasida tavallud topgan. Hozirgi O'zMUning o'zbek filologiyasi fakultetini tamomlagan. U "Tortilgan kamon", "Kuz ertasi", "Uyg'onishdan o'zga tole izlama", "Bir dunyo savol", "Men ham bitta O'zbekistonman" deb nomlangan she'riy to'plamlarini adabiyot ixlosmandlariga taqdim etgandi. Shoir tarjimonlik sohasiga ham qo'l urib, Minkovskiyning "Baqaloq" qissasini, Akutagavaning "Qorong'ilikdagi suhbat", "Pigmey so'zlari", Kotib Yosinning "Grif" asarlarini, Tokubokuning "Tankalar" hamda fin eposi hisoblangan "Kalavela" dostonini zo'r mahorat bilan o'zbek tiliga tarjima qilgan.

Chori Avazning turmush o'rtog'i Zebo Omonova shoirni shunday xotirlaydi: "Chori aka ishda ham, oilada ham mas'uliyatli, tartibli, qat'iyatli va qattiqqo'l inson edi. Har bir ota kabi farzandlarini sevar, ularni kitobga oshno qilish uchun hatto 3 yoshli qizimizga alifbe kitobini olib bergandi. Do'stga sadoqatli, g'ururi baland inson edi. Chori Avaz ijodda ham o'ta jiddiy, ishdan kelib, yarim tungacha ijod bilan shug'ullanar, yozgan she'rlarini erinmasdan qayta-qayta ishlardi. Barcha faslning o'z zavqi bo'lgani uchunmi, u kishi hamma faslni yoqtirardi. Qishning qorli kunlari, bahorning go'zalligi, yozning larzon mevalarga boyligi, ayniqsa, kuzning ma'sum va ma'yusligini sevardi. Bu faslni o'ychan, donishmand chol qiyofasida ko'rardi".

Shoirning qizi Guli Nigor Avazova esa shunday deydi: "Otam vafot etganida men juda yosh edim, deyarli u kunlarni yaxshi eslolmayman. Onamning aytishlariga qaraganda, otam juda mehribon, ochiqko'ngil, adabiyotga oshno inson bo'lgan, har doim otamning ushbu xislatlarining o'zimda bo'lishini xohlayman. Shoira sifatida esa menga otamning she'rlari doim ilhom baxsh etadi".

*Bugun ko'nglim yana*
*xotiralarga band,*
*O'jar yuragimning bilgani sog'inch.*
*Otam xayollari qayg'uga kamand,*
*She'rlari ertam-chun beradi ilinj.*

Otasi she'rlaridan ruhiy quvvat oladigan Guli Nigor bugungi kunda otasining yo'lini davom ettirib kelmoqda.

Beshafqat o'lim shoirni yoshlikning shashti ufurib turgan ayni ijod pallasida – 35 yoshi(1992-yil 29-noyabr)da bu dunyodan olib ketdi. Shoir qisqa umr ko'rgan bo'lsa-da, undan sermahsul ijod namunalari qoldi.

"Nasaf" nashriyotida birga ishlagan hamkasbi Bolta Jo'rayev shoir bilan birga o'tkazgan kunlarini eslab, "Noshirlik faoliyatimdan xotiralar" nomli kitobini nashrga tayyorlamoqda. Chori Avazning ijodkor do'stlari ko'p, lekin hammasidan ham uning yozgan asarlari, asarlarining muxlislari — eng yaqin do'stlari.

Uning xotirasini abadiylashtirish maqsadida shoir doimo o'zi talpinib, o'z she'rlarida madh etadigan qishlog'ida byusti o'rnatildi. Har yili qishloqda shoirning tug'ilgan kuniga bag'ishlab xotira kechasi tashkil etiladi, hurmat va ehtirom ko'rsatiladi.

*Vatan, mening yurak iplarim,*
*Bilib bo'lmas samoviy qudrat,*
*Samoviy bir ishonch tufayli*
*Yuragimga bog'langan faqat.*

Har gal G'uzor tumanidagi mo'jazgina Tojik qishlog'iga kelganimda, shoir Chori Avazning vatan haqidagi ushbu misralari quloqlarim ostida jaranglayveradi. Ana shu qishloqning bag'rikeng insonlari, salqin shabbodaga burkanib turgan dov-daraxtlari, chang ko'chalari Chori Avaz qalbida ilk ilhom tuyg'usini, ona vatanga cheksiz mehrni shakllantirgandi.

Bugun shoir oramizda yo'q, ammo yuraklarga so'z bo'luvchi ohanrabo misralari sabab uning nomi abadiyatga daxldordir.

**Sadoqat RASHIDOVA,**
O'zJOKU talabasi

Taqriz

# ADABIYOT TARIXI YARATISHNING MAS'ULIYATI

Adabiyotshunosligimizda mumtoz adabiyot bilan bog'liq tadqiqotlar salmoqli adadni tashkil etadi. Jumladan, adabiyot tarixiga doir ishlar(monografiya, darslik, xrestomatiya va ko'p tomliklar)ning yuzaga kelish an'anasi ham salkam bir asrlik tarixga ega. Bu borada Fitrat, Miyon Buzruk Solihov, Olim Sharafiddinov, Porso Shamsiyev, Natan Mallayev, Vohid Abdullayev va G'ulom Karimov kabi allomalarning xizmatlarini alohida e'tirof etgimiz keladi. Shuningdek, o'tgan asrning yetmishinchi yillari oxiri va saksoninchi yillari boshida professor Abduqodir Hayitmetov rahbarligida vujudga kelgan besh jildlik "O'zbek adabiyoti tarixi" esa yo'nalishdagi namunapardoz ish edi.




Mustaqillik yillarida ham bu borada birmuncha kitoblar yaratildi. Xususan, Rahim Vohidov, Husniddin Eshonqulov, Rahmonqul Orzibekov, Botirxon Valixo'jayev kabi olimlarning ishlarini sanash lozim. Biroq so'nggi yillardagi ushbu sohada yaratilgan keng ko'lamli darslik sifatida filologiya fanlari doktorlari Nusratullo Jumaxo'ja va Iqboloy Adizovaning qalamiga mansub "O'zbek adabiyoti tarixi (XVI–XIX asr I yarmi)" (Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020, 538 bet, qayta ishlangan, to'ldirilgan ikkinchi nashri) kitobini alohida ta'kidlash kerak.

Birinchidan, ushbu darslik adabiyotimiz tarixidagi tom ma'nodagi qiziqarli va hali to'la kashf etilmagan davrni qamrab olgani bilan ahamiyatlidir. Ma'lumki, to'rt asrlik adabiyotimiz borlig'i, kechmishi va butun masalalarini bir darslikka mukammal tarzda sig'dira olish juda mushkul. Lekin asar mualliflari bu borada eng yaxshi va munosib uslubni tanlashgan. Ya'ni, mazkur davrning eng muhim jihatlari va eng yirik adabiy figuralarni aks ettirishga intilganlar.

Ikkinchidan, sohaga oid avvalgi ishlardan farqli ravishda unda quyidagi masalalar ham yoritilganini ko'rish mumkin:

1) Adabiyotimiz tarixida ushbu davrda yetakchi unsur bo'lgan adabiy muhitlar tegrasida masalalar hal etilgan (Buxoro adabiy muhiti, Qo'qon adabiy muhiti, Xeva adabiy muhiti);

2) Nomlari adabiyot darsliklariga kiritilmagan yoki kam e'tibor qilingan adabiy figuralarga alohida e'tibor berilgan (Ubaydiy, So'fi Olloyor, Abulg'ozi Bahodirxon);

3) Ilgari u yoki bu darajada o'rganilgan ijodkorlar shaxsiyati va adabiy merosini yangicha nuqtayi nazar bilan baholash (Turdi Farog'iy, Xo'janazar Huvaydo, Amiriy, Munis Xorazmiy).

Bu jihatlar bir qaraganda darslik osha ko'zga tashlanadi. Lekin u bilan yaqindan tanishib borilgan sari, har ikki muallif o'z tadqiqotlar doirasidan kelib chiqqan holda, darslikni imkon qadar qiziqarli va yangi ilmiy faktlar bilan boyitishga, soha bo'yicha yetishib kelayotgan bo'lajak mutaxassislar e'tiborini adabiyotimiz tarixidagi eng yorqin va muhim jihatlarga qaratishga harakat qilganliklari seziladi.

Avvalo, darslik "Uqtirish xati" va "Darslik imlosidagi ayrim xususiyatlarga izohlar" deya nomlangan kirish qismlari bilan boshlanadi. Mazkur o'rinlardayoq kitobxon ushbu darslikning asos mohiyati va boshqalaridan farqli jihatlariga e'tiborliroq bo'lishi anglashiladi. Masalan, "Xeva" so'zining yozilishi "asliyatga yaqin" ekani bilan izohlansa, "Navoiy" emas "Navoyi" tarzida berilishi esa Fitrat, Hamid Sulaymon va N.Jumaxo'janing o'z ilmiy asosdagi chiqishlari bilan izohlanadiki, bu dalillar shubha uyg'otmaydi.

Shu bilan birga, har bir mavzu nihoyasida berilgan "Tayanch tushunchalar", "Savol va topshiriqlar" va "Asosiy adabiyotlar" talabalarga mavzuni to'la ravishda o'zlashtirish hamda bu borada kengroq fikr yuritish imkonini beradi. Bu esa har bir mavzu avvalidagi "Reja"ning ne qadar amalga oshirilgani va mavzu bo'ylab tatbiq eta kelinganini ham izohlaydi.

Darslikning dastlabki mavzusi "XVI–XIX asr birinchi yarmidagi tarixiy sharoit, madaniy hayot va adabiy-ilmiy muhit" deya nomlanishi va taqdim etilishi ham ko'p jihatdan kitobda yoritilayotgan masalalarga oydinlik kiritadi. Aytaylik, berilayotgan davrlarni yuzyilliklarga bo'lgan holda har davr boshida berilganida, darslikning umumko'lami va bir butunligi ta'minlanmagan bo'lardi.

XVI–XIX asr birinchi yarmiga oid asosiy adabiy va tarixiy manbalarning saralanishi, o'rni bilan mavzuga daxldor jihatlarning tadqiqqa tortilishi, ko'p sonli adabiyot hamda tadqiqotlarga murojaat qilinib ketilishi, bir qancha o'rinlarda yangicha qarash-u baholash mezonlarining o'rtaga tashlanganligi mualliflar tomonidan mavzu anchayin chuqur ishlanganini ko'rsatadi. Aytaylik, bir necha o'rinlarda professor Fitrat tadqiqotlariga murojaat qilinishi, uning adabiyot tarixini davrlashtirish va e'tibor qaratilishi muhim bo'lgan o'rinlarga o'z davridayoq urg'u berganligi masalasining bayon etilishidan adabiyotimiz tarixini asl mezonlar va manbalar qamrovida tadqiq etish nihoyatda zarur hamda ilmiy haqiqatga muvofiq ekanligiga amin bo'lish mumkin.

Darslikda birmuncha kengroq o'rin ajratilgan ijodkorlardan biri Zahiriddin Muhammad Bobur. Mualliflar Bobur ijodiyotini batafsilroq qamrab olishga va baholashga harakat qilgan. Bobur lirikasi va "Boburnoma" asariga ancha keng to'xtalgan.

Shundan so'ng Buxoro adabiy muhiti haqidagi mavzular boshlanadi. Unda Xoja, Ubaydiy, Turdi Farog'iy va So'fi Olloyor ijodi haqidagi sahifalar o'rin olgan. Keyingi o'rinlarda Mashrab va Huvaydo ijodini tadqiq etishga bag'ishlangan sahifalar keladi. Qo'qon adabiy muhiti va uning ijodkorlari — Amiriy, Gulxaniy, Nodira va Uvaysiyga bag'ishlangan o'rinlar ham qiziqarli yoritilgan. Xeva adabiy muhiti va uning peshqadam vakillari – Abulg'ozi Bahodirxon, Muhammadniyoz Nishotiy, Nurmuhammad Andalib, Munis Xorazmiy, Muhammadrizo Ogahiy haqidagi ma'lumotlar ham ancha batafsil berilgan.

Darslik nihoyasida "Amaliy mashg'ulot mavzulari", "Asosiy adabiyotlar", "Qo'shimcha adabiyotlar" va "Test topshiriqlari" ilova qilinganki, bu mazkur darslik zamonaviy darsliklarga qo'yilayotan talablar asosida yaratilganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, mualliflarning nafaqat serqirra olim, balki mahoratli pedagog ekanliklari ham oydinlashgan.

Ta'kidlash joizki, darslikdagi Ubaydiy bilan bog'liq o'rinlar va tahlillar yangi ekanligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, So'fi Olloyor haqidagi sahifalar haqida ham shunday deyishimiz mumkin. Bu ikki ijodkor adabiyotimiz tarixidan mustahkam o'rin olishi ilmiy va ma'rifiy jihatdan juda muhim. Bu esa tarixiy adolatning tiklanishi hamdir.

Shu bilan birga, darslikda Mashrab, Uvaysiy va Munis Xorazmiy haqidagi mavzular ham anchayin yangilikka boyligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, bu ijodkorlarning asarlarini tahlil etishda ajoyib misollar tanlab olingan va baholash ham ijodkorga munosib ravishda bo'lgan.

Darslik yana bir qancha yutuq va afzalliklarga ega. U o'z sirasidagi asarlarning eng yaxshilaridan bo'lgan, desak mubolag'a emas. Shu bilan birga, ayrim mulohazatalab o'rinlar ham bor. Aytaylik, Bobur haqida berilgan sahifalarda nafaqat boburshunoslik, balki o'zbek fanidagi katta yutuq "Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi" eslanmagan. Vaholanki, u ikki bora (2014–2017-yillar) nashr etildi. Bobur devonining qo'lyozmalari haqidagi o'rinda (68-69-betlar) kimga tayanilgani havolada ko'rsatilmagan. Ushbu jihatlar haqida mazkur satrlar muallifining bir necha chiqishlari ma'lum.

Yoki Mashrab va Huvaydo avtomatik tarzda Buxoro adabiy muhiti vakillari tarzida ketib qolgan. Masalan, Huvaydoning Qo'qon madrasalarida tahsil olgani va vodiyda nash'u namo qilgani ma'lum-ku. Uni Qo'qon adabiy muhitining dastlabki namoyandalaridan biri sifatida talqin etish, ilmiy haqiqatga zid emas.

So'nggi yillarda Mashrab tarjimayi holi bilan bog'liq ayrim jiddiy chiqishlar qilingan. Masalan, Abdusattor Jumanazarning maxsus tadqiqot kitobi ham ma'lum. Mana shu jihatlarga biror yerda havola berib, urg'u berilsa, darslik yangiligi yanada ortardi.

Shuningdek, ayrim adabiyotlarni berishda yanglishishlar ham uchraydi. Misol uchun, P.Qayyumovning "Xo'qand tarixi va uning adabiyoti" kitobi "Qo'qon tarixi va adabiyoti" tarzida 1998-yili chop etilgan deya beriladi (306-bet). Haqiqatda ushbu asar 2011-yili nashr bo'lgan edi.

O'ylaymizki, darslikdagi bu juz'iy kamchiliklar keyingi nashrlarda bataraf etiladi. Bir so'z bilan aytganda, o'z sohasining bilimdonlari, zahmatkash olimlar N.Jumaxo'ja va I.Adizovaning "O'zbek adabiyoti tarixi (XVI–XIX asr I yarmi)" darsligi ayni vaqtida yaratilgan, mumtoz adabiy merosimizni yosh avlodga targ'ib-tashviq etish va o'rgatish yo'lidagi eng muhim manbalardan biri bo'lib qoladi.

**Otabek JO'RABOYEV,**
O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyi direktor o'rinbosari, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Ta'kidlash joizki, darslikdagi Ubaydiy bilan bog'liq o'rinlar va tahlillar yangi ekanligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, So'fi Olloyor haqidagi sahifalar haqida ham shunday deyishimiz mumkin. Bu ikki ijodkor adabiyotimiz tarixidan mustahkam o'rin olishi ilmiy va ma'rifiy jihatdan juda muhim. Bu esa tarixiy adolatning tiklanishi hamdir.

Teran tomirlar

# Fitrat va tasavvuf

Abdurauf Abdurahim o'g'li Fitrat (1886–1938) Buxoroda ruhoniy oilasida dunyoga keldi. Maktabda xat-savodni chiqargandan so'ng, Mir Arab madrasasida tahsil oldi. U yoshligida otasi hamrohligida Makkada ham bo'lganligini manbalar tasdiqdaydi (Tazkirayi Vozeh, 1914, 329-330).

Fitrat yoshligidan boshlab Sharq klassik adabiyotining, falsafasining kuchli ta'siri ostida voyaga yetdi, o'zi ham she'r mashq qila boshladi. Dastlab tojik tilida she'rlar yozib, ularning ostiga lirik "Mijmar" (xushbo'y giyohlar tutatiladigan otashdon) taxallusini qo'yardi. Abduraufning ilk she'rlari klassik shoirlar ijodiyotini o'rganish asnosida olingan chuqur taassurotlar, qolaversa, talanti, adabiyotga tug'ma mehr-muhabbati natijasi o'laroq vujudga kelgan bo'lib, ular ishqiy, tasavvufiy, poetik mazmundagi muxammaslar, g'azallardan iboratdir. Masalan, uning shunday asarlaridan biri "Hasrat g'azaliga muxammas"idir:

*Dil boxtaam, tarki muhabbat kivo' man ki?*
*Fikri xo'du parvoyi malomat kivo', man ki?*
*Savdoyi dardam, g'ami sihhat kivo', man ki?*
*Qulfat zadaam, bodayi ishrat kivo', man ki?*
*Bemori g'amam, bistari rohat kivo', man ki?*
*Sarmasti may ishkamu, forig z-jahonam,*
*Jo'z darsi muhabbat nabuvad virdi zabonam,*
*Savdozadayi gamzayi ohunigaxonam.*
*Dildodayi dog'i g'ami Laylisifatonam,*
*Andeshayi fardoyi qiyomat kivu, man ki?*

**Tarjimasi:**

*Dilimni (muhabbatga) yutqazib bo'lganman, tarki muhabbat qayda-yu, men qayda. O'zim haqda o'ylash qayda, malomatga qolmaslik parvosi qayda-yu, men qayda. Dardim savdoyilik (ya'ni, savdoyilikning g'amini o'ylayman erta-kech), sog'lig'im tashvishi qayda-yu, men qayda? (Tinimsiz) kulfat cheksam, ishrat bodasi qayda-yu, men qayda, g'amning bemoriman, rohat to'shagi qayda-yu, men qayda?*

*May, ishki bilan sarmastman, bu yorug' jahondan forig'man (bu olamda yo'qman). Lab-u dahanim muhabbatdan o'zga dars uchun aylanmas. Ohu ko'zlining g'amzasidan savdozada bo'lganman. Laylisifatlar g'ami dog'iga dil berganlardanman, (shunday ekan) qiyomat ertasining andishasini qilmoq qayda-yu, men qayda?*

Boshqa bir misol:

*Xurram dile, ki dar sharori g'am kabob shud,*
*Obod xonaye, ki z-hasrat xarob shud...*
*Dil nest, sangi ko'hnayi mozor ast, oncha o'-*
*No oshnoyi kor, gohi iztirob shud...*
*Maro saroy ayshi fazoy malomat ast,*
*Jono, digar mago'y, ki on ham xarob shud.*

**Tarjimasi:**

*Xurram dil g'am o'tida kabob bo'ldi, hasratdan obod xona (dil) xarob bo'ldi... Yurak yurak emas, mozorning ko'hna toshidir, shu qadarki, u (dunyo) ishlariga oshno emas, iztirob makonidir... Menga fazo ayshining saroyi(ni o'ylash ham) malomatdir. Jono, boshqa gapirmaki, u(saroy) ham xarob bo'lgan.*

Abdurauf Fitratning adabiyotga mehri o'ta ayricha bo'lgan. Bu shoir ijodining ilk davrida go'zal she'rlar yaratganidan tashqari, estetik qarashlarida ham ko'zga tashlanadi. U adabiyotni ulkan san'at deb e'zozlaydi, uni fanlar qatoriga qo'shmaydi. Fitrat o'z ijodini she'r yozishdan boshladi. U chinakam shoir edi. Yuqoridagi parchalar ham shoir hissiyoti va talantining yuksakligini, originalligini zohir etishga qodir. Fitrat keyingi davr klassik shoirlarimizning eng so'nggi klassigi bo'lishi mumkin edi. Ammo taqdir uning manglayiga bo'lakcha qismat bitdi. Shoir mansub tarix burilayotgan inqilob-u o'zgarishlar davrida faqatgina mumtoz shoir bo'lib qolish mumkin emasdi. Shoirning 1908-yildan keyingi ijodiy va hayotiy yo'nalishini davr belgilab berdi — bizning agrar feodal jamiyatimizda boshlanayotgan, misli ko'rilmagan Yangi davr. Dunyo o'zgarishga va yangilikka muhtoj edi. Fitrat ijodining ham, faoliyatining ham ijtimoiylashuvi (jadidlik bosqichi va keyingi davr) zamon taqozosi edi.

Fitratning, u hali klassik adabiyotimiz an'analari ta'siri ostida bo'lib, ijtimoiy turmush ishlariga aralashuvni boshlamagan bir chog'da Buxoroda yangi boshlangan jadidlar harakatiga qarshilik qilganini ham tabiiy qabul qilish kerak. Sharqning uchqur falsafasi va mumtoz adabiyotini yuksak qadrlagan, butun vajdi va idroki bilan shunga berilgan inson uchun bu hatto me'yoriydir (Qolaversa, kirib kelayotgan har qanday yangi fikr osonlikcha singmaydi). Shunday qilib, Fitratga klassik she'riyatni, undagi badiiyatni, tasavvufiylikni yangi pog'onalarga ko'tarish (davr imkon berganida shoirdan buni kutish mumkin edi) nasib etmadi. Davr to'lqinlari uning o'zini ham, ijodiy yo'nalishini ham umuman shoir kutmagan qirg'oqlarga surib ketdi. U sof adabiyotgamas, xalqiga xizmat qildi. Shuni vijdoniy burchi deb bildi. Sovet zamonida esa Fitrat "Men hech bir vaqt tasavvufga mansub bo'lmadim... hech vaqt mutasavvuf bo'lmag'onman", deb qayta-qayta yozishga majbur edi. Klassik she'riyatning bosh mezoni – aruz vaznini "sxolastik" deb hisobladi. Shunday bo'lsa-da, Fitrat ijodining ilk bosqichi — daholigining kurtaklari uning keyingi ijodiy va ijtimoiy faoliyati shakllanuvida yo'lchi yulduz bo'lib turdi — o'sha jarayon shoirni bevosita yoki bavosita boshqara bildi. Bir juz'iy misolni ko'rib o'taylik.

Abdurauf Fitratning "Chin sevish" (1920) dramasi qahramoni Nuriddin so'zlari: "...bilsaydingiz, ishqni dard demas edingiz. Ishq dard emas, insonlarni hayvonlikdan qutqarajak bir davodir... "Buyuklik" va "kamol" degan narsalarga erishmak "ishq"siz mumkin emasdir. Shuning uchun ishq davodir. Uni "dard" deb, davosini izlaganlar yonglish yo'lga ketarlar... Oshiqning ishqdan boshqa tilagi yo'qdir. Chin oshiqlar ma'shuqlarining o'zlari bilan emas, xayollari bilan yashaylar. Chin oshiq o'zining saodatini emas, ma'shuqining kamolini istar. Ma'shuqning kamoliga xizmat etmak uchun o'zi komil bo'lurga tirishur. Har ishdan burun ma'shuqini o'z yoniga olmoq istaganlar ma'shuqlaridan burun o'zlarining saodatlarini tilaganlar erurlar. O'z saodatini o'ylaganlarga esa oshiq demak yonglishdur".

Misoldan yana shu narsa ko'rinib turibdiki, Fitrat ijodidagi dastlabki tasavvufchilik bilan keyingi tasavvuf ta'siri zarralari orasida ziddiyatsiz shakliy tafovut bor. Abdurauf Fitrat ijodining keyingi bosqichida butun Sharq falsafasi kabi, tasavvuf ta'sirini ham real jamiyat hayotiga tatbiq etishga urinadi. Umuman, Fitrat falsafiy-ijtimoiy qarashlarining shakllanishida tasavvufning ham bevosita o'rni va ahamiyati bor. Bu "Fitrat va tasavvuf" degan alohida masala.

"Chin sevish" pyesasining tilga olinishi munosabati bilan bir narsani aytib o'tish joiz. O'z vatanini qullikdan ozod ko'rmagan adib "Chin sevish", "Hind ixtilolchilari" kabi dramatik asarlarida, avvalo, Turkiston o'lkasining erkini ko'zda tutadi. Aytish mumkinki, Abdurauf Fitrat o'zining erkka intilishdek oliy e'tiqodiga umrining oxirigacha sodiq qoldi. Zamonlar o'zgardi. Hamid Olimjon bir paytlar "Chin sevish"ni (1920) "Hindiston voqeligini" ko'rsatish bilan "Turkistondagi millatchilik harakatining topshiriqlarini bajardi", deb qoralagan bo'lsa, Bugun biz Fitratni xuddi shuning uchun — Turkiston mustaqilligi jabhasida mustamlakachilik siyosatiga qarshi goh oshkora, goh yashirin (ramziy) kurashi, nafrati tufayli e'zozlaymiz.

Gulshan RAHIM

# "Daftar hoshiyasidagi bitiklar"ni o'qiganmisiz?

XX asr o'zbek adabiyotining taniqli vakili O'tkir Hoshimovning ijodiga qiziqqan har bir kitobxon uning "Daftar hoshiyasidagi bitiklar"ini e'tibordan chetda qoldirolmaydi. Unda mavzular rang-barangligi, jumlalar izchilligi sizni hayratga soladi, pand-nasihatlar, inson erki, jamiyat va uning yutuq-kamchiliklari haqidagi betakror fikrlarga guvoh bo'lasiz.

Asarning asosiy qahramoni bu – inson. Uning dardli kechinmalari, ichki his-tuyg'ulari ifodalangan. Inson kim? U qanday yaralgan? Uning nimalarga qodir ekanligi, insonning eng yaxshi amallari bilan eng yomon illatlari qog'ozga olinadi.

"Insoniyat orol emas, qit'a bo'lib yashashni o'rgansa, ko'p balolarning oldi olingan bo'lardi". To'g'ri, ijodkor aytganidek inson — qit'a. U juda ko'p ezguliklarga qodir.

Inson, insof va iymon bu uch tushuncha juda keng ko'lamli hisoblanadi. Insof bilan iymon insonning eng ulug' fazilatlaridandir. Shu ezgu fazilatlarga tayanib yashagan inson o'zini komillik sari yetaklaydi: "Odam o'z manfaatlariga mos kelish-kelmasligidan qat'i nazar, ezgu amallarni bajarsa va qilish mumkin bo'lmagan ishlardan tiyilsa, insofli bo'ladi. Buning uchun u mukofot olmasligi mumkin. Ammo iymoni to'kis bo'ladi. Shu boisdan bunday insonni iymonli deydilar".

"Daftar hoshiyasidagi bitiklar"ni o'qigan har bir kitobxon chuqur mulohazaga toladi. O'tmishiga nazar soladi. Insonni qayta ulg'aytiradi. Tarixni eslashga undaydi. O'zbekning achchiq qismatini xotirlaydi. Bardoshli millat barcha qiyinchiliklarni yengdi. Sabr va sabot bilan yorug'likka chiqdi: "Tangri insonga sabot bergan. Nonini tortib olsalar, chidaydi. Molini o'g'irlasalar, chidaydi. Ursalar, so'ksalar, chidaydi. Ammo oqni qora, qorani oq desalar, farishtani "shayton", shaytonni "farishta" deb "isbotlab bersalar", bunisiga chidashi qiyin…

Bunday paytda so'nggi ilinj — Ollohdan madad so'rab, iltijo qilishdir. Tangrining tarozisi bexato ishlaydi…".

Bu asarning yana muhim xususiyatlaridan biri ota-onaga mehr-muhabbat, itoat etish, farzandlik burchi, ota-ona mas'uliyati, farzandiga to'g'ri tarbiya berish, el-yurtga nafi tegadigan qilib ulg'aytirish haqida so'z boradi: "Bolam bemehr chiqdi, nuqul o'zining bolalari bilan andarmon deb, ko'p ham o'kinmang. Balki, sizga adolatsizlik bo'lib tuyulayotgan narsaning o'zi adolatdir… Siz ota-onangizdan olgan qarzni bolangizga berasiz. Bolangiz – o'zining bolasiga…

Hayot zanjiri uzulmasligi kerakku…".

Asarda keltirilgan ushbu jumlalarni o'qib, o'yga tolasan. Haqiqatga tik qaray olgan insongina buni tushunib yetishi mumkin. Hech bir inson bu dunyoga shunchaki kelib ketmasin.

Ma'rifat MIRZABEKOVA,
Boyovut tumanidagi
22-maktabning ona tili va adabiyot fani
o'qituvchisi

Talqin

# Takror(ga) chalingan "Kuz simfoniyasi"

**Chin adabiyot ixlosmandi mumtoz asarmi yoxud zamonaviy adabiyot namunasimi, ajratib o'tirmaydi, o'zi uchun yangilik, yangi fikr izlaydi. Asarni qo'liga olganidan to yakunlagunicha o'sha mo'jazgina olamda "mehmon" bo'ladi.**





Bir adabiy asarni o'qiyotgan kitobxonlarning har biri turlicha fikrlaydi, o'z dunyoqarashidan kelib chiqib baholaydi, tahlil qiladi. Yaqinda nashrdan chiqqan Sherzod Ortiqovning "Kuz simfoniyasi" hikoyalar to'plamini o'qish bizga ham nasib etdi. Uni o'qib, hayratlanarli fikrlar-u tuyg'ularni topish bir qadar qiyin bo'ldi. Badiiy jihatdan pishiq deyishga ham ertaroq. Muallif hikoyalar ustida hali ishlashi kerak, bizningcha. Ammo bir narsani tan olish joiz – muallifning aytmoqchi bo'lgan gapi bor. Faqat uni o'quvchiga to'la-tokis yetkazib berolmagan, xolos.

Kitobni o'qish davomida barcha hikoyalarda bir narsa seziladi – voqealar silsilasining bir xilligi va allaqanday jig'ibiyronlik. Shuningdek, hikoyalar tili publitsistik ruhga yaqinroq. Muallif o'zbek tilining jozibasidan kengroq foydalanishni uddalay olganda bu jihat uncha ko'zga tashlanmagan bo'lardi. Ba'zi o'rinlarda qaytariqlar, takroriy so'zlar, ortiqcha tafsilotlarga berilish, hikoyaga xizmat qilmaydigan detallar mavjud.

To'plamdagi "To'rtinchi qavatdagi xonadon" hikoyasini olaylik. "...taksiga chiqqanimda..." jumlasi bilan boshlanib, "... harorat pasayib ketgandi"gacha bo'lgan bir jumla: "Yomg'ir maydalab yog'ar, uning bunday tarzda yog'ishi qandaydir asabiylikni paydo qilardi" (muallifda) jumlasi bilan tugagan. Aslida, shu gapning o'zini ham misol uchun – "Shig'alab yog'ayotgan yomg'ir asab tolalarini taranglashtirardi" tarzida ixchamlashtirsa bo'lardi. Muallif shu hikoyada o'lim va hayot to'g'risida qahramon tilidan mulohaza yuritib, umuman zarurat kasb etmagan tafsilotlarni bayon qiladi: "... U tufayli bir kuni men rus yoki ingliz tillarini mukammal biladigan; nufuzli tibbiyot oliygohini tamomlagan; o'z vaqtida yuzlab badiiy va ilmiy asarlarni mutolaa qilgan; aytaylik, chang'i uchishni, mashina haydashni, qo'shiq kuylashni, rasm chizishni, radiopryomnik tuzatishni yoki odamlar qornini yorib operatsiya qilishni biladigan insondan bir uyum tuproqqa aylanaman"...

Hikoya qahramoni kasalligi tufayli farzandli bo'la olmasligidan aziyat chekish o'rniga o'limga ro'baro' kelishdan qo'rqadi. Ruhiy talqinda ham qahramon farzandsizlik, o'zidan zurriyot qoldirish vahimasidan emas, balki xislatlari va mavqeyi darajasida egallagan narsalarini yo'qotishdan xavotir oladi va qahramon o'quvchi ko'z o'ngida ruhan manfaatparast (muallif talqinida esa u boshqa odam) sifatida namoyon bo'ladi. Bayondagi ifoda: "Tanasining iliq harorati shiddatli yomg'ir va sovuq mulohazalar ta'sirida sovib ulgurgan tanamga ko'chib o'tib, uni va muzlab qolgan shuurimni ilitdi... va h.k." Tananing sovub ulgurishi o'layotgan odamda yuz beradi – "Sovuq yomg'ir va yoqimsiz mulohazalar ta'sirida tanamni ilitarkan, muz qota boshlagan shuurimni yoritdi..." bo'lsa, bizningcha tushunarliroq bo'larmidi...

Hikoyalarni o'qirkansiz, deyarli har bir hikoyada kitob tavsiya qilinishi tasviriga duch kelasiz. Balki bu yaxshi bir priyomdir, odamlar ko'proq kitob o'qishlari uchun, ammo hikoyada shartmikan, bu chorlovni publitsistika yo esse janri orqali berish qulayroq va o'rinliroq emasmi?

Yana bir hikoya — "Premyeradan so'ng". Ortiqcha so'z ishlatish yoki takroriy jumlalar bunda ham yaqqol ko'zga tashlanadi. "Sahnada aktyorlarning ijrosi tufayli qiziqarli ko'rinishga kelgan drama bir oz maishiy mavzuda bo'lsa-da, uni tomosha qilish qaysidir ma'noda odamni zeriktirmas edi". Qahramon tilidan qiziqarli dramadan zerikmayotganini aytish shartmi? Yoki sahna asari nima sababdan qiziqarli tusga kirganini o'quvchi tushunmaydimi?! "Sahnada aktyorlarning ijrosi tufayli qiziqarli ko'rinishga kelgan drama...". Bizningcha, bu o'rinda "Drama birmuncha maishiy mavzuda bo'lsa-da, kishini zeriktirmasdi" deyish kifoya. Hikoya davomida Murod Ikromovich tilidan hozirgi zamon odamlari haqida fikrlar keltiriladi. Aytilishicha, hozirgi zamon odamlari ikki toifaga bo'linadi — XX asr odamlari va XXI asr odamlari. Hikoyada XX asr odamlariga xos xususiyatlar birma-bir sanalib, XXI asr odamlari tasvirida esa shu fikrlar birma-bir inkor qilinadi. Ya'ni, muallif aytmoqchi bo'lgan fikrini aytib bo'lib, keyingi tasvirda boshqa yangi jumlalar kiritmagan.

Asarning badiiy sayqali o'quvchini o'ziga tortadi, ma'no anglashilgan va o'quvchi fikr dunyosida bo'lgan, murakkab fikriy qarashlarini topsa, uni qayta o'qishga chog'lanadi. Ifoda esa uni yana o'ziga tortadi. Ifoda — til orqali namoyon bo'ladi. Agar yozuvchi so'z boyligida muammo bo'lsa, qaytariq ko'payadi, tili no'noqlashadi, o'quvchini men ham shunday yoza olaman, degan fikrga ro'baro' qiladi.

Misol: "Oyog'ing osti sarg'imtir barglarga to'lib, atrofdagi xazonrezgi ko'ngilga qandaydir sokinlik baxsh etib, tasalli beradi" ("Markesning kitobi" hikoyasidan); "Atrof go'yo tillarangga bo'yalgandek sariq tusga kirib, sarg'ayib yerga to'kilgan daraxtlarning barglari sabab ba'zida oyoq qo'ygani joy topilmasdi" ("Iqror" hikoyasidan). Muallif deyarli barcha hikoyalarida bir xil yomg'ir tasvirini chizadi-da, uni hikoyadagi g'amgin anduhga mengzashga urinadi, ammo bir xil tasvir orqali buni uddalay olmagan.

"Premyeradan so'ng" hikoyasida shamol qattiq esayotgani, ko'p o'tmay, qor yomg'irga aylangani, keyingi tasvirda esa yana qattiq esayotgan shamol tufayli hamrohining ovozi eshitilmagani aytiladi. Bu chalkashlikmi yoki hali shamol tinmaganmidi?!

"Berlin ertagi" hikoyasida ham odatdagidek yomg'ir tasviri (balki muallif asar "Kuz simfoniyasi" deya nomlanganidan kelib chiqib yomg'ir detalidan ko'p foydalangandir), lekin takroriy jumlalarni yana uchratamiz: "Tashqarida yomg'ir yog'ayotgani bois uning usti ivib ketgan, turmaklanmagan uzun sochlari ho'l, bug'doyrang yuzidan tinmay yomg'ir tomchilari oqib tushardi". Bundan oldingi jumlalarda ham yomg'ir yog'ayotgani aytilgan: "O'shanda ham tashqarida yomg'ir sharros quyardi". Bu o'rinda bir necha jumladan keyin qahramonning sochlari nega ho'l ekanligini yana bir bor izohlashga hojat bormikan?

Bir vaqtning o'zida mazkur hikoyalarni o'qish davomida bir narsa kuzatiladi: deyarli hamma hikoyada ma'lum-u mashhur yozuvchi, bastakor, rassomga murojaat! Bu hol muallifning hikoyalarga o'z menini ortiqcha darajada aralashtirganini yaqqol ko'rsatadi. Fikri, ma'naviy qarashlari, talqini mohiyatini zo'rlab singdirishga harakat qiladi. Natijada hikoyadagi ravonlik shu joyda yo'qola boradi. Bu hol asarning badiiylik jihatiga putur yetkazib, unga publitsistik ruh bag'ishlab qo'ygandek.

Muallif Motsart, Betxoven, Markes, Axmatova, Povsvyatovskaya, Balzak, Dikkens, Delmar, Remark, Shopen, Rilke, Shekspir, Van Gog, Klod Mone… kabi mashhurlarning ba'zilarini bir, ikki, ba'zilarini bir necha marta ayro hikoyalarda tilga olib o'tadi. Nega? O'rinli, o'rinsiz sujet liniyasida unga mos voqelik tuzadi. Hikoya qahramonlarining deyarli barchasi ular soyasiga sajda qilib voqelikni yuzaga keltiradi. Demak, hikoyalar kompozitsion qurilishi ular atrofida aylanib qolganmi yo ularga sajda etar darajada tuzilish olganmi? Obrazlarda individuallik yetishmaydi. Deylik, aksar hikoyalar qahramoni keng dunyoqarashga ega, jangariroq, hayotdan ko'ngli to'lmagan va hammaning o'ziga o'xshash bo'lishini yoki o'z fikrlariga monand bo'lishni istaguvchi bank xizmatchisi. Aslida esa obraz – ijodkorning hayotiy kuzatishlari asosida shakllangan, uning badiiy to'qimasida aks etgan ma'lum g'oyani tashuvchi inson hayotining konkret va ayni paytda umumlashgan tasviri bo'lishi kerak emasmi?

Hikoyanavis o'z ko'nglidagi gaplarni tasvirlayotgan shaxs yoki voqeaga munosabatini ochiq-oydin tasvirlashi shart emas, yo'qsa bu asar sotsializm singdirilgan asarga aylanadi. Yozuvchining uslubi bizningcha uning tilida o'z aksini topadi. Muallifning "Tushkun she'rlar" hikoyasidagi obraz ichki kechinmalari obraz tilidan monolog shaklida berilgan bo'lsa-da, muallifning o'zi ekani yaqqol ko'zga tashlanadi va obraz mukammalligini yo'qotadi. Bundan tashqari, hikoyadan hikoyaga mutolaa davomida yana yangi mavzuga emas, balki avvalgi qaytariq – bir qiz va bir yigit, yo bankir qiz va bankir yigitga duch kelasiz. Kuz, sovuq, xazonrezgi, oyoq ostidagi sarg'aygan barglar bir xil tasvir bilan hafsalangizni pir qila boshlaydi.

Kitobni o'qib chiqarkansiz unda yaxshi tasvirlar va aytmoqchi bo'lgan gapi bor muallifni ham ko'rasiz, albatta. Misol uchun "Tango raqqosasi" hikoyasida ikki obraz ichki kechinmalari orqali bir qarashni berish yaxshi topilma va ancha maromiga yetgan .

"Tango raqqosasi" ikki qahramon — bankir Rashod va raqqosa qiz Diyora tilidan hikoya qilinadi (xuddi shu usul "Tugallanmagan kartina" hikoyasida takrorlanadi). Bu hikoyada g'oya bor-u, yetkazib bera olinmagan, xolos. Agar muallif raqqosaning iqrorini keltirmay (mashinadagi iqror) uni ochiq qoldirganda, balki yanada mukammalroq bo'larmidi?

"Kuz simfoniyasi" hikoyasi o'zgacha taassurot qoldiradi. Unda baxtsiz oilasidagi baxtsiz turmushini biroz unutmoqchi bo'lgan Maftuna ismli ayol haqida hikoya qilinadi. Nimagadir deyarli barcha hikoyalarda yakun mubham. "Yomg'ir valsi" hikoyasi ham ancha yaxshi yozilgan – dard bor, anduh bor, o'quvchini bir maromda ushlay oladi. "Otamning kabutarlari", "Markesning kitobi", "Bahor yakshanbasi"ni ham ancha maromiga yetkazilgan hikoyalar safiga kiritish mumkin.

Ijod olamiga endi kirib kelayotgan yozuvchi tanqid va tahlillardan xulosa chiqargan holda o'z ustida ishlashi va kamchiliklarni bartaraf etishi lozim. Biz esa ijodkorlarni kuzatishda, sara asarlarni keng ommaga tavsiya etishda davom etamiz.

O'ktam ODILOV,
tarjimon
Nilufar ORIPOVA,
Jizzax davlat pedagogika instituti
talabasi

# "Ma'rifat" repetitori

## Majburiy fanlar asosida tuzilgan, mavzulashtirilgan testlarning 5-varianti

### ONA TILI

**1. Shunday yurt...a yashayot...animizdan fa...rlansak arziydi.**

Ushbu gapdagi tushirib qoldirilgan tovushlar nutq a'zosining ishtirokiga ko'ra qaysi guruh(lar)ga mansub?

A) bo'g'iz va til tovushlari
B) til va lab tovushlari
C) faqat lab tovushlari
D) faqat til tovushlari

**2. *Bir havo zarbi bilan aytiladigan tovush yoki tovushlar birikmasiga ... deyiladi.***

**Nuqtalar o'rniga tilshunoslikka oid termin qo'ying.**

A) bo'g'in B) urg'u
C) fonema D) morfema

**3. Bir xil so'z turkumiga oid omonimlar qaysi javobdagi gaplar juftligida keltirilgan?**

A) Rang **ko'r**, hol so'r. **Ko'r** hassasini bir marta yo'qotadi.

B) Bir yil **tut** ekkan kishi yuz yil gavhar teradi. Esing borida biron kasbning etagini **tut**.

C) Qovun ekkan **qovoq** olmas. Uning **qovog'idan** qor yog'ilar edi.

D) **Yer** – xazina, suv – gavhar. Mehnat qilgan katta **yer**.

**4. Arxaik so'zlar qatorini belgilang.**

A) hojib, degrez
B) payg'om, bog'ot
C) yorg'ichoq, sovut
D) palaxmon, dubulg'a

**5. *Mehnat, halollik haqida ibratli rivoyat bor: Bir bola ulg'aygach, otasi unga ishlab pul topib keltirishni buyuradi.***

**Ushbu gapda qatnashgan yasama so'zlar qaysi so'z turkum(lar)idan yasalgan?**

A) sifat, ot B) sifat, fe'l
C) ot, ravish D) faqat sifat

**6. O'timli fe'l qatnashmagan gapni aniqlang.**

A) Bir yigit ko'zlari xiralashgan, ovqat yeganda qaltiraydigan qari otasining izzat-hurmatini bajo keltirmasdi.

B) Bir kuni chol bechora qo'li titrab, osh suzib berilgan kosasini tushirib sindirdi, buni ko'rgan kelini nordon so'zlar aytib, uning ko'nglini vayron qildi.

C) O'g'li va kelinining bu kabi yaramas muomalalaridan ko'ngli ozor topgan ota vafot etgan kampirini eslab, ba'zan o'ksib yig'lardi.

D) Or-nomus uchun kurash bolalikdan boshlanadi.

**7. *Menga g'ayir ko'zi ila qarashingiz tabiiy deb hisoblayman.* (Sh. Xolmirzayev)**

**Ushbu gapda egalik qo'shimchasi necha o'rinda kelgan?**

A) bitta B) ikkita C) uchta D) to'rtta

**8. *Hech qanaqa shartim yo'q. Ishlab u-bu orttirish niyatim ham yo'q.***

**Ushbu gapda olmoshning tuzilishiga ko'ra qaysi turlari ishtirok etgan?**

A) sodda, qo'shma
B) juft, takroriy
C) qo'shma, juft
D) sodda, takroriy

**9. Qaysi javobda shaxsi umumlashgan gap berilgan?**

A) Yig'ilishda ta'lim samaradorligini oshirish haqida gapirildi.
B) Endi qattiq o'qishga to'g'ri keladi.
C) Boshingga qilich kelsa ham, to'g'ri gapir.
D) Oyni etak bilan yopib bo'lmaydi.

**10. *Noma va arizalarning ba'zisi mirzo, muftilarga havola qilinar edi.***

**Ushbu gapda qaysi gap bo'laklari uyushib kelgan?**

A) aniqlovchi, to'ldiruvchi
B) ega, to'ldiruvchi
C) ega, aniqlovchi
D) ega, hol

**11. Qaysi javobda nisbiy so'zli ergashgan qo'shma gap berilgan?**

A) Sen birodaringni qanchalik yaxshi ko'rsang, Tangri ham seni shunchalik yaxshi ko'radi.

B) Shuni bilingki, hech bir yangilik bexosiyat bo'lmaydi.

C) Seni hurmat qilishlarini istasang, o'zingni hurmat qil.

D) Shu mo'jaz uyimda yonsin deb chiroq, Ne aziz zotlarga yondashdim gohi.

**12. *Mening bir jaydari falsafamdir shu // Hargiz iltimosga kuning qolmasin.***

**Ushbu bog'lovchisiz qo'shma gap orasiga qanday tinish belgi qo'yiladi?**

A) vergul B) ikki nuqta
C) tire D) nuqtali vergul

**13. Qaysi gapda uslubiy xatolik mavjud emas?**

A) Hozir kuyovimga, telefon qilaman, qamoqdan bo'shaganimizda Dyun bilan uchovimiz tushgan sur'atni olib keladi.

B) Karl yagona yashar, onasi yetti yil burun vafot etgan, otasi taniqli etnograf Gerhard Myuller, ko'p vaqtini arxeologik safarlarda o'tqazar, nega bir nemis oilasi o'zbek mahallasida turib qolganini hech kim bilmasdi.

C) Men hayotimga kunlar qo'shishni emas, kunlarimga hayot qo'shishni tilayman.

D) Har qanday zamonda kitob o'qigan insonlar film tomosha qilgan odamlar ustidan yetakchilik qilganlar.

**14. *Nihoyatda qattiq qo'rqmoq.***

**Qaysi javobda ushbu birlikka ma'nodosh bo'la olmaydigan ibora berilgan?**

A) yuragi chiqib ketmoq
B) esi chiqib ketmoq
C) o'pkasini qo'ltiqlamoq
D) joni xalqumiga kelmoq

**15. *Nimalar qilyapsiz, ona?! – o'g'li yolvoruvchan ovoz bilan yaltoqlanib Tazkiraning oldida tiz cho'kkan.***

**Ushbu gapda qaysi so'z nutqning jo'yaliligini buzgan?**

A) yaltoqlanib B) yolvoruvchan
C) tiz cho'kkan D) oldida

***Ushbu test topshiriqlari va savollari amaldagi 5–11-sinf ona tili darsliklari asosida tuzildi.***

**Dildor NURMUHAMMEDOVA,**
**Termiz shahridagi 23-maktab o'qituvchisi**

### MATEMATIKA

**16. Rasmda berilgan shaklning qanday qismi bo'yalgan?**



A) $\frac{5}{8}$ B) $\frac{3}{8}$

C) $\frac{5}{6}$ D) $\frac{7}{8}$

**17. Uch xonali sonning oxirgi raqami 6 bilan tugaydi. Bu sonning 2021-darajasini 5 ga bo'lgandagi qoldiqni toping.**

A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

**18. Stol ustida 2 ta fizika, 2 ta tarix va 2 ta matematika kitoblari bor. Tavakkaliga bitta kitob tanlandi, u matematika. Ikkinchi marta tanlashda fizika kitobi bo'lishi ehtimolini toping.**

A) 0,4 B) 0,(4) C) 0,2 D) 0,6

**19. Eni 200 metr, bo'yi enidan 300 metr ortiq bo'lgan maydonning atrofidan sportchi qiz yurib o'tmoqchi. Agarda sportchi qizning qadami uzunligi 70 cm bo'lsa, u bu maydon atrofini aylanib chiqishi uchun necha qadam tashlaydi?**



A) 200 B) 20 C) 2000 D) 20000

**20. 7•8 < 758 tengsizlik o'rinli bo'lishi uchun yulduzcha o'rniga qanday raqamlar qo'yish mumkin?**

A) 1, 2, 3, 4, 5 B) 0, 1, 2, 3, 4
C) -1, 0, 1 D) 1,2,3,4

**21. Quyidagi juftliklardan o'zaro tub bo'lmaganini aniqlang.**

A) (5; 85) B) (11; 92) C) (1; 17) D) (45; 47)

**22. 1:10000 masshtabli chizmada 3 mm bo'lgan masofa aslida necha metrga teng?**

A) 3 B) 30 C) 0,3 D) 0,03

**23. Berilgan shaklning necha foizi bo'yalsa uning teng yarmi bo'yalgan hisoblanadi?**



A) 25% B) 50% C) 20% D) 40%

**24. 7122418713 sonining 5 ga bo'lganda a qoldiq, 9 ga bo'lganda esa b qoldiq qolsa, a+b ning qiymatini toping.**

A) 9 B) 10 C) 3 D) 12

**25. Agar A va B nuqtalar orasidagi masofa 4 cm ga teng bo'lsa, berilgan shaklning bo'yalgan qismi necha kv cm ga teng?**




A) 112 B) 144 C) 125 D) 225

**26. 278557 sonida raqamlar o'rnini almashtirib**

# "Ma'rifat" repetitori

## Majburiy fanlar asosida tuzilgan, mavzulashtirilgan testlarning 5-varianti

**nechta 6 xonali son hosil qilish mumkin?**
A) 60 B) 120 C) 150 D) 180

**27. 30 foizli 80 gramm shakar eritmasiga 100 gramm suv qo'shildi, endi undagi shakar miqdorini % da aniqlang.**
A) 13 % B) 13, (3)% C) 14 % D) 15 %

**28. Quyidagi tasdiqlarning qaysi biri natural sonlar uchun to'g'ri?**
A) eng kichik natural son 0
B) Natural sonni nolga bo'lish mumkin
C) 10 dan kichik toq sonlar 4 ta
D) oxirgi raqami 5 bo'lgan 3 xonali sonlar 90 ta

**29. Agar $-5,8>-5,56$ tengsizlik to'g'ri bo'lsa, 4,26 ning butun qismini, aks holda 6,75 ning kasr qismini toping.**
A) 0,26 B) 4 C) 0,75 D) 6

**30. Tenglamani yeching:** $\frac{x-3}{2}+\frac{4x-1}{3}=11$

A) 1 B) 3 C) 7 D) 8

*Keyingi sonda "Nisbat va proporsiya" mavzusida testlar beriladi, bunda testlar 5-6-7-sinf materiallari bo'yicha tuziladi.*

Hamza XUDOYBERDIYEV,
G'ijduvon tumanidagi
32-maktab o'qituvchisi

### ЎЗБЕКИСТОН ТАРИХИ

**31. O'rta Osiyoga buddaviylik dini qaysi davlat davrida kirib kelgan?**
A) Kushon
B) Yunon-Baqtriya
C) Ahamoniylar davlati
D) Afrig'iylar davlati

**32. Spitaman bilan Makedoniyalik Aleksandr o'rtasida qachon hal qiluvchi jang bo'lib o'tgan?**
A) mil. avv. 328-yilda
B) mil. avv. 330-yilda
C) mil. avv. 332-yilda
D) mil. avv. 327-yilda

**33. Quyidagi qaysi jangda Amir Temur mag'lubiyatga uchragan?**
A) "Anqara jangi"
B) Qunduzcha jangi
C) Arzinjon yaqinidagi jangda
D) "Loy jangi"

**34. Quyidagi qaysi allomaning 70 dan ortiq tilni bilganligi ba'zi manbalarda qayd etilgan?**
A) Mahmud Zamaxshariy
B) Abu Nasr al-Forobiy
C) Mahmud Koshg'ariy
D) Ahmad Yugnakiy

**35. Xorazmshohlar davlatining hukmdori Qutbiddin Muhammad faoliyati bilan bog'liq to'g'ri ma'lumot berilgan javobni aniqlang.**
A) "Xorazmshoh" unvonini qayta tiklagan.
B) Xorazmning saljuqiylar davlatidan mustaqilligini qayta tiklagan.
C) Movarounnahrni qoraxitoylar zulmidan ozod etgan.
D) Eronni Xorazmga bo'ysundirgan.

**36. Quyidagi qaysi davlatning dastlabki poytaxti Buxoro yaqinidagi Poykant va Varaxsha shaharlari bo'lgan?**
A) Xioniylar davlati
B) Eftallar davlati
C) Kidariylar davlati
D) Sosoniylar davlati

**37. Xitoyga qarshi sharqiy turkistonliklar milliy-ozodlik kurashi mag'lubiyatga uchragach, Yusufxo'ja bilan birga qancha uyg'ur oilasi Farg'ona vodiysiga ko'chib kelgan?**
A) 30 ming B) 50 ming
C) 70 ming D) 80 ming

**38. Qoraqalpoqlarning Kichik Juz xoni Abulxayrxonga qarshi olib borgan muvaffaqiyatsiz kurashi, mag'lubiyat natijasida chekkan azob-uqubatlari quyidagi qaysi asarda o'z ifodasini topgan?**
A) "Oydo'stbiy" B) "Qirqqiz"
C) "Edigey" D) "Darbadar el"

**39. Manbalarda qayd etilishicha, qaysi Buxoro amiri madrasa talabalariga ma'ruzalar o'qib turgan?**
A) Amir Haydar B) Amir Shohmurod
C) Amir Nasrullo D) Amir Muzaffar

**40. "Buxoro shoirlari taxtida sulton" nomi bilan shuhrat topgan tarixiy shaxsni aniqlang.**
A) Ahmad Yassaviy B) Sayido Nasafiy
C) Turdi Farog'iy D) Bedil

**41. 1902-yilda Matyoqub pishiq rahnamoligida qo'zg'olon bo'lib o'tgan hudud nomi qaysi javobda berilgan?**
A) Hazorasp B) Ko'hna Urganch
C) Pitnak D) Yangi Urganch

**42. Buxoro amirligi hududi orqali nechanchi yilda dastlabki temiryo'l o'tkazilgan?**
A) 1887-yilda B) 1888-yilda
C) 1905-yilda D) 1902-yilda

**43. 1886-yilda Turkiston general-gubernatorligi aholisining umumiy soni qanchani tashkil etgan?**
A) 6,8 mln B) 4,3 mln C) 5,2 mln D) 6,1 mln

**44. O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetiga kim rahbarlik qilgan davrda O'zbekistonda kadrlarni mahalliylashtirish jarayoni ommaviy ravishda amalga oshirila boshlandi?**
A) Nuriddin Muhitdinov B) Amin Niyozov
C) Usmon Yusupov D) Sobir Kamolov

**45. O'zbekistonda aholisi soni 3 million kishidan oshgan hududlar soni nechtani tashkil etadi (2018-yilgi ma'lumotga ko'ra)?**
A) 4 ta B) 3 ta C) 6 ta D) 2 ta

Jalol BOLTAYEV,
Urganch davlat universiteti magistranti,
«Limetless» o'quv markazi tarix va geografiya
fanlari repetitori

**5-VARIANT TESTLARINING JAVOBLARI**

| ONA TILI | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 | 12 | 13 | 14 | 15 |
| D | A | C | B | A | D | B | C | C | A | A | B | D | C | A |
| MATEMATIKA | | | | | | | | | | | | | | |
| 16 | 17 | 18 | 19 | 20 | 21 | 22 | 23 | 24 | 25 | 26 | 27 | 28 | 29 | 30 |
| B | A | A | D | B | A | B | A | C | B | D | B | D | C | C |
| O'ZBEKISTON TARIXI | | | | | | | | | | | | | | |
| 31 | 32 | 33 | 34 | 35 | 36 | 37 | 38 | 39 | 40 | 41 | 42 | 43 | 44 | 45 |
| A | A | D | B | A | B | C | D | D | B | A | A | C | D | A |

Ta'kid

# Har bir ota-ona pedagog bo'lishi kerak!

**Bugungi kunda o'quvchilar ongida jaholatga qarshi kurasha olish ko'nikmasini rivojlantirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayon faqatgina umumta'lim maktablari faoliyati bilan cheklanib qolmasligi kerak. Bunda oilaning ham o'rni katta. Oila va maktab hamkorligini yo'lga qo'yishda har bir yuqori sinf o'quvchisining shaxsiga hurmat bilan yondashish zarur.**

Ma'lumki, oila asosan milliy tarbiyaga suyangan holda o'z a'zolarining ongi va tafakkurini rivojlantirib, tarbiyalab boradi. Shuning uchun ham bu hamkorlik tizimida quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:
– ota-bobolarimiz turmush tarzi;
– milliy qadriyatlarimiz;
– milliy urf-odatlarimiz;
– milliy-ma'naviy boyliklarimiz;
– milliy madaniyatimiz;
– milliy g'ururimiz;
– milliy ong;
– milliy psixologiya...

Maktab bilan oila o'rtasidagi mukammal tarzda tuzilgan hamkorlik, yuqori sinf o'quvchilarini ongi va tafakkurini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishini e'tiborga olgan pedagogik jamoa har bir ota-onani pedagogik bilimlar bilan qurollantirishi mazkur tizim faoliyatiga ijobiy ta'sir etadi.

Shuning uchun ham pedagoglar, ota-onalarga bola tarbiyasida nimalarga e'tibor qaratishi kerakligi borasida pedagogik tavsiyalar berib borishi bu tizimning samarali ishlashiga zamin tayyorlaydi.

"Siz yuqori sinf o'quvchilari psixologiyasini bilasizmi? Farzandingizning mayllari, qiziqishi, ehtiyojlari bilan qiziqasizmi? Maktab o'qituvchisidan farzandingiz to'g'risida ma'lumotlar olib turasizmi" kabi savollarga to'liq javob bera oladigan ota-onagina farzandlarini ma'nan yuksak shaxs qilib tarbiyalashi mumkin.

**Mamadali ISOQULOV,**
**JDPI "Umumiy pedagogika"**
**kafedrasi katta o'qituvchisi**

Hayrat

# "Uy – Vatan, kuy – Vatan, o'y – Vatan..."

Bolaligida she'r yodlamagan odam bo'lmasa kerak. O'sha paytlar xolalarimning qizlari she'r yodlayotganida takror-takror o'qiganlariga juda havas qilganim, ular qaytargan sari men yodlab olganlarim yodimga tushadi.

Chinakam she'r ta'mini esa ancha keyin, oliy o'quv dargohida totib ko'rdim. Balki hali ham mazasini bilmayotgandirman, mag'zini chaqa olmayotgandirman. Lekin bir narsani ayta olamanki, menda she'rni tanlab o'qish va tanlab olingan she'rlarni qayta-qayta o'qish malakasi paydo bo'ldi. Mumtoz adabiyot, mumtoz she'riyatni alohida lug'atlar asosida va bir tartibda mutolaa qilib boraman. Zamonaviy she'riyatdan Usmon Azim, Azim Suyun, Muhammad Yusuf, Faxriyor, Iqbol Mirzo, Eshqobil Shukur kabi shoirlar she'rlarini sevib o'qiyman. Yoshlar she'riyatida ham ajoyib asarlar ko'zga tashlanib turadi.

Menga kuchli ta'sir ko'rsatgan she'riyat esa farg'onalik shoir A'zam O'ktam ijodi bo'ldi. Odamlar qalbini uyg'otadigan, ko'ngilning bir joylariga tegib-tegib ketadigan bu she'rlar qanday yozilgan ekan, deb o'ylab qolaman. Xalqini, o'zi tug'ilgan joyni juda yaxshi ko'rgan insongina shunday ta'sirli yozadi. Shoirning "Andijon" she'rini o'qiganimdan so'ng uning boshqa she'rlarini ham axtarib topgandim. Shuning uchun eng avval shu she'rga to'xtalgim keldi:

*Har kulning ostida cho'g' bor bu yerda,*
*Shakkok odamlarga duch keldim kamroq.*
*Ulug'lar izi bor har o'r-u qirda,*
*Qizlarining ko'zlari namroq.*

Vatan haqida so'z borgan birinchi satrda har kul tagida o'chmagan cho'g' borligi, ya'ni bu millatning chirog'i hali so'nmasligi, hali bolalari yana ulg'ayib kelishiga ishora bordek, nazarimda. Qizlarning nam ko'zlarida shoir o'zbekona hayo, iboga ishora qiladi. "Siniq ko'ngilli, bag'ri kuygan odamlar faqat bizning yerlarda bor" deydi A'zam O'ktam:

*Entikib turibman – vujudim cho'g'dir,*
*Qalbimni bir tuyg'u sel kabi bosgan.*
*Dunyoning hech qaysi burchida yo'qdir,*
*Yo'qdir Kuyganyor deb atalgan maskan.*

A'zam O'ktam har bir alamni she'rga solgan. Bu iztirob mening ham yuragimni tirnaydi. Olis qishloqda qolgan yaqinlarim, o'ynab-kulib kechirgan bolaligim ko'chalarini yodga soladi. Qishloqqa borgan shoir ota-onasini eslaydi, qadrdon ko'chani gavdalantiradi, podadan qaytgan echki, it timsollarini bir-bir keltirib o'tadi-da, o'zining ikki tomon mehri intiqligi o'rtasida iztirob chekayotganini ta'sirchan ifodalaydi:

*So'ng tongda jo'narman yana qaltirab,*
*O'z holim o'ylayman achchiq jilmayib.*
*Shaharda bolalar kutar mo'ltirab,*
*Qishloqda volidam qolar mung'ayib.*

Ko'zga yosh keltiradi bu satrlar. Hamma ham o'z kechinmalarini shunday ifoda qila olarmidi?

Shoirning "Onam fotihasi" she'ri butun millatning onalari tilidan aytilgandek go'yo. Bir o'rinda "mana, endi diplom olding, hukumat odamisan, odamlarni qog'oz bilan qo'rqitma", desa, yana bir joyda "Birovlarning daraxtini kesma, qo'lingdan kelsa, ek" deydi. She'r oxirida esa vatanga bo'lgan sevgi, intilish juda ham ta'sirli kuylanadi:

*Onangning bisoti faqat oq yo'ldir,*
*Seni tortib tursin tuproq, ona til.*
*Qayda yurma, qancha umr ko'rma, baribir,*
*Tobutda bo'lsa ham yurtingga intil!*

Qaysi ona bolasining o'limiga tayyor ekan? Hech bir. Lekin Vatan tuyg'usi shu qadar kuchliki, bu kuch onaning o'lganda ham yurtga ko'mishlarini vasiyat qila oladigan mard farzandni voyaga yetkazishda berayotgan o'gitiga ham quvvat bag'ishlaydi.

Insonning insonlik nomiga munosib bo'lib qolishi haqida ko'p ijodkorlar asarlar bitgan. Chindan ham, insonlik nomiga munosiblik hammaga ham nasib etavermaydi. Xatolarga yo'l qo'yib, keyin ularni to'g'rilolmaydiganlar ko'p. A'zam O'ktam esa inson bo'lib qolish uchun balolarga mubtalo bo'lib, yonib-kuyib yashash lozimligini bildiradi:

*Saodat, sadoqat — gulxandir,*
*Biz mangu yonaylik gulxanda.*
*Uy — Vatan, kuy — Vatan, o'y – Vatan,*
*Orzuga yetaylik Vatanda.*

O'z yurtdoshlari g'amini chekkan shoir bir she'rida shu qora yer chekiga tushganini yozadi va yupun odamlar hasrati ko'pligi-yu, boy odamlar hafsalasini pir qilganini kuyunib bitadi. Bu dardlar xalq g'amini yeyishdan, unga yaxshiliklar tilashdan paydo bo'ladi:

*Shu qora yer tushgan chekimga,*
*Uzolmadim ko'ngilni oydan.*
*Hasratidan to'yib yupunning,*
*Hafsalam ko'p pir bo'ldi boydan.*

Agar hamma inson ham xuddi ana shu kayfiyatda yashaganida, balki hayotimiz gullab-yashnab ketarmidi, yer yuzida bolalar ochlikdan nobud bo'lmasmidi, deb o'ylayman ba'zan.

A'zam O'ktam she'riyatida din va diyonatga undovchi asarlar ham ko'p. Yana shunday she'rlar borki, odamni o'ylantirib qo'yadi. Qilayotgan ishlarimiz haqida o'ylay boshlaymiz. Xuddi shoir kabi ilm olaman deb chopib ketganlarimiz, oxiratni o'ylab namoz o'qiganlarimizni eslaymiz. Shu asnoda bir amal tufayli hammasi bekor ketmadimikan, degan o'y keladi xayolga.

*Qabul bo'lmas birontasi ham,*
*Bari ketar shekilli kuyib.*
*Bugun tongda negadir otam*
*Qarab qo'ydi norizo bo'lib.*

Ana shu emasmi chin o'zbeklik qiyofasi. Otani baland tutish, onani e'zozlash qon-qonimizga singigani, ota-onasiga e'tibor qilmaganlar elning ham nazaridan qolishi hammamizga ma'lum. Agar har birimiz shu hadik bilan yashasak, qilgan ishlarimizda yaqinlarimiz roziligini ololsak, maqsadga erishamiz.

Shoir she'rlarida tashbehning ajoyib, hech kimda uchramaydigan namunalarini ko'rish mumkin. Bir she'rida u: "Yomg'ir bu – pichirlab qilingan duo" deya mayin shitirlayotgan yomg'irni ijobat bo'lguvchi duolarga mengzar ekan, maysalar titrog'iga qarab, ularni sajda qilayotganga o'xshatadi.

Sevimli shoirimiz bir she'rida o'zligimiz, qadriyatlarimiz, o'zbek ekanimizdan g'urur tuyib shunday degandi:

*Yaxshiyam bilaman yetti pushtimni,*
*Yaxshiyam tug'ildim ota yurtimda.*
*Yaxshiyam bolalar sen deb gapirmas,*
*Yaxshiyam rafiqam ko'tarmas qadah.*

Men esa yaxshiyam A'zam O'ktam degan shoir bilan vatandoshman, yaxshiyam she'r o'qish baxtiga yetganman, degan bo'lardim.

**Gulnora SHERMATOVA,**
**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi**

# Dunyodagi eng qimmat kitobni bilasizmi?

Kitoblar haqida qiziqarli ma'lumotlar:

📖 Eng sirli kitob sifatida "Voynich qo'lyozmasi" e'tirof etiladi. U insoniyat tarixida mavjud bo'lmagan tilda yozilgani bois olimlar hali-hanuz o'qiy olishmagan.

📖 Dunyodagi eng qimmat kitob Leonardo da Vinchi qalamiga mansub "Lester majmuasi"dir. Uni kimoshdi savdosida Bill Geyts 24 million dollarga sotib olgan. Ajablanarlisi, ushbu kitobni ko'zgu yordamisiz o'qib bo'lmaydi.

📖 "Ming bir kecha" ertagidagi Oloviddinni bilmaganlar orangizda bo'lmasa kerak. Qizig'i shundaki, kitobning dastlabki nashrida Oloviddin arab emas, xitoylik sifatida tasvirlangan.

📖 L.Kerrollning "Alisa mo'jizalar mamlakatida" kitobi Xitoyda taqiqlab qo'yilgan. Bunga asardagi hayvonlarning inson tilida gapirishi sabab qilib ko'rsatilgan.

📖 Harvard kutubxonasida odam terisidan tayyorlangan to'rt dona kitob saqlanadi.

📖 Dunyoda kitob chop etish texnologiyasi paydo bo'lgandan beri jami 2 milliardga yaqin kitob nashr etilgan.

📖 Ming yil oldin Yaponiyada bitilgan "Gendzi qissasi" ilk roman sifatida tan olingan.

📖 Eng sermahsul ijodkor deb yozuvchi Barbara Kartlendni aytsa bo'ladi. U oyiga ikkitadan roman yozib, dunyo ahlini allaqachon hayratga solib ulgurgan.

📖 Kitob o'g'risini dunyo miqyosida *"bibliokleptoman"* deb atashadi.

📖 Dunyodagi eng yirik kutubxona AQSH Kongressi kutubxonasi sanaladi. Uning fondida 150 million nusxadan ortiq kitob bor. U 1800-yilda AQSH prezidenti Jon Adams tomonidan tashkil etilgan. Sobiq prezident Kongressga kerakli kitoblarni xarid qilish uchun 5 ming dollar ajratgan. Hozir kutubxonaga yiliga bir million yetti yuz ming kitobxon tashrif buyuradi.

📖 Amerikalik biblioman Stiven Blumberg o'zining kitoblarga bo'lgan g'alati "mehri" sabab jahonga dong taratgan. Umri davomida u kutubxonalardan qiymati bir necha million dollar bo'lgan 20 mingdan ortiq kitobni o'g'irlagan. Bundan 268 ta kutubxona zarar ko'rgan. Stiven Blumberg bir necha marta panjara ortiga tushgan. Biroq ozodlikka chiqqach yana eski mashg'ulotini davom ettirgan. Qizig'i, kitoblardan birortasini sotmagan va ularga zarar yetkazmagan.

📖 Finlandiyaning Vantaa shaharchasi kutubxonasiga notanish kishi qadimiy kitobni qaytargan. Jildning orqa tomonidagi qaydlarga qaraganda kitob yuz yil oldin berilgan.

📖 Norvegiyada yozuvchilar uchun qator imtiyozlar mavjud. Masalan, yozuvchi bu mamlakatda kitob nashr ettirsa, ming nusxasini Norvegiya hukumati darhol sotib oladi va kutubxonalarga taqsimlaydi.

📖 Haskell kutubxonasi bir vaqtning o'zida dunyoning ikki mamlakati – AQSH va Kanadada joylashgan. Binoning yarmi Amerikaning Derbi-Layn shaharchasida bo'lsa, qolgan yarmi Kanadaning Stensted shahrida. Kutubxonaga faqat AQSH tomonidan kirish mumkin.

📖 Hozirgacha faoliyatini to'xtatmagan eng qadimiy kutubxona Misrning Muqaddas Yelena ibodatxonasida joylashgan. U miloddan avvalgi VI asrda ochilgan.

📖 Dunyodagi eng ommabop yozuvchi Agata Kristi hisoblanadi. Uning detektiv asarlari 44 tilda, ikki milliarddan ortiq nusxada chop etilgan.

📖 Eng ko'p asar yozgan dramaturg ispaniyalik Lope de Vega sanaladi. Uning 1800 ta pyesasi bor.

📖 Eng uzun biografiya Uinston Cherchilning hayoti haqida bo'lib, u 22 jilddan iborat.

📖 Dunyodagi eng og'ir vaznli kitob Britaniya muzeyida saqlanadigan geografik atlas hisoblanadi. Uning bo'yi bir metrdan ortiq, og'irligi esa 320 kilogram.

**Nilufar HUSAYINOVA,**
**Romitan tuman axborot-kutubxona markazi kutubxonachisi**

*Xurvaliyeva Tarmiza Latipovnaning 13.00.08 — Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof olam bilan tanishtirish metodikasini takomillashtirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.12/30.12.2019.Ped.80.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 15-noyabr kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100070, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani,
Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 64-uy.
Tel/faks: (71) 150-01-27, 150-01-27; e-mail: info@mdomoi.uz

*Sharipova Gulruxsor Nurqabilovnaning 13.00.01 — Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha "Pedagogik ta'lim klasteri sharoitida talabalarda o'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 5-noyabr kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 111700, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy.
Tel/faks: (70) 712-27-55, 712-45-41; e-mail: chdpi-kengash@umail.uz

*Djumayev Zuxriddin Furkatovichning 14.00.21 — Stomatologiya (tibbiyot fanlari) ixtisosligi bo'yicha "Dermatoz bilan xastalangan bemorlarda surunkali tarqalgan generallashgan parodontit klinik ko'rinishining xususiyatlari" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat stomatologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019.Tib.59.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 2-noyabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tdi.*

Manzil: Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Maxtumquli ko'chasi, 103-uy. Toshkent davlat stomatologiya institutining rektorat majlislar zali.
Tel/faks: (71) 230-20-65, 230-47-99; e-mail: tdsi2016@mail.ru

*Mirzayev Abdulxamit Marifovichning 13.00.01 — Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha "Bolalar va o'smirlar sport maktablaridagi belbog'li kurash mashg'ulotlarining tashkiliy pedagogik asoslarini takomillashtirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 10-noyabr kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy.
Tel/faks: (70) 712-27-55, 712-45-41; e-mail: chdpi-kengash@umail.uz

*Mamadaliyev Kamolidin Raxmatulloyevichning 13.00.01 — Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha "Informatikadan modernizatsiyalashgan o'quv adabiyotlari va elektron darsliklarini yaratishning didaktik asoslarini takomillashtirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021. Ped.82.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 10-noyabr kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi,104-uy.
Tel/faks: (70) 712-27-55, 712-45-41; e-mail: chdpi-kengash@umail.uz

*Nabiyeva Nargizaxon Nazirjonovnaning 03.00.09 — Umumiy genetika ixtisosligida biologiya ixtisosligi bo'yicha "Magnibracteolata seksiyasiga mansub ayrim polimorf g'o'za turlarining filogenetik munosabatlari" mavzusidagi (biologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.B.53.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 16-noyabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 111208, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Yuqori-yuz. Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti majlislar zali.
Tel/faks: (71) 264-23-90, 264-23-90; e-mail: igebr@academy.uz

*G'afurov Jahongir Mumindjanovichning 14.00.01 — Akusherlik ginekologiya ixtisosligi bo'yicha "Ayollarda stress siydik ushlay olmaslik korreksiyasida sling-plastik operatsiya amaliyotlarini takomillashtirish va ularning samaradorligini baholash (tibbiyot fanlari)" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi "Respublika ixtisoslashtirilgan akusherlik va ginekologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi" davlat muassasasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.04/05.06.2020.Tib.114.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 18-noyabr kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100124, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 132- "A" uy.
Tel/faks: (71) 263-78-30, 263-84-83; e-mail: info@uzaig.uz

*Dusmatova Dilnoza Ergashboyevnaning 02.00.10 — Bioorganik kimyo, kimyo fanlari ixtisosligi bo'yicha "Inula britannica, Inula grandis va Tanacetopsis karataviensis o'simliklarining terpenoidlari" mavzusidagi (kimyo fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'simlik moddalari kimyosi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.01.2020.K/T.104.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 11-noyabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-uy.
O'simlik moddalari kimyosi instituti binosi.
Tel/faks: (71) 262-59-13, 262-73-48, 120-64-75.

*Qodiraliyeva Fotimaxon Akbarovnaning 02.00.10 — Bioorganik kimyo, kimyo fanlari ixtisosligi bo'yicha "Crotalaria alata va Crotalaria sp. polisaxaridlari. Galaktomannanlarning tuzilishi, xususiyatlari va ulardan amaliy foydalanish istiqbollari" mavzusidagi (kimyo fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'simlik moddalari kimyosi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.01.2020.K/T.104.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 11-noyabr kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-uy.
O'simlik moddalari kimyosi instituti binosi.
Tel/faks: (71) 262-59-13, 262-73-48, 120-64-75.

*Buranova Barno Menglibayevnaning 10.00.06 — Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo'yicha "Badiiy tarjimada tarixiy-milliy koloritni saqlash prinsiplari("Yulduzli tunlar" romanining turkman tilidagi namunasi asosida)" mavzusidagi (filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil/Tar.21.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 13-noyabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100047, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 16-uy.
Tel/faks: (71) 233-45-21, 233-52-24; e-mail: sharq_ilmiy@mail.ru

**Izoh: O'tkazilayotgan barcha himoyalar O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markazning** *http://himoya.bimm.uz* **platformasi va ZOOM dasturi orqali onlayn (masofaviy) tarzda amalga oshiriladi.**

# Buyuk adibni xotirlab

Ona tilimizning jozibasi, boyligi, imkoniyatlari haqida qancha gapirsak, shuncha oz. Yosh avlod qalbi va ongida vatanparvarlikni mustahkamlash, avvalo, ona tilimizga hurmat ko'rsatish va uni qadrlashdan boshlanadi. Xususan, oktabr oyida O'zbek tili bayrami munosabati bilan turli tashkilot va muassasalarda, mahalla va korxonalarda bo'lib o'tgan tadbirlar o'zbek tili – davlat tilining mavqeyi balandligini tasdiqlash bilan birga, bu sohada hali qilinishi lozim bo'lgan ishlar ham oz emasligini yana bir bor ko'rsatdi.



Mirobod tumanidagi 328-maktabda "O'zbek tili" fan oyligi doirasida "Barhayot siymolar" turkumida o'tkazilgan tadbirlar ma'rifatparvar jadid bobolarimizning xotirasini yod etish, ularning boy ijodiy va ilmiy merosini o'rganish va qadrlashga bag'ishlandi. Yaqinda mazkur maktabda "Buyuk adib Abdulla Qodiriy ijodi – o'lmas ma'naviyatimiz tayanchi" mavzusida adabiy-badiiy kecha bo'lib o'tdi. Kechada o'quvchi va o'qituvchilar, taklif etilgan adib va shoirlar ishtirok etdi.

Maktab o'quvchilari tomonidan ulug' yozuvchi Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon", "O'tkan kunlar" asarlari hamda adibning hayoti va faoliyatiga oid voqealar asosida tayyorlangan sahna ko'rinishlarini, yuqori sinf o'quvchilari ifodali o'qigan Otabek, Kumush, Zaynab kabi kitob qahramonlarining monologlarini ishtirokchilar qizg'in kutib oldilar.

Tadbirda "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi bosh muharriri, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist, shoir Salim Ashur adib Abdulla Qodiriyning adabiy merosi, yozuvchi asarlari asosida suratga olingan kinofilmlar va ularning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati to'g'risida gapirdi.

Tadbir yakunida o'quvchilar o'zlarini qiziqtirgan barcha savollarga javob oldilar.

**Erkin HOJIMUHAMMAD**

## Qutlov



O'zbekiston xalq ta'limi a'lochisi, Turon akademiyasining faxriy akademigi Orif Ayupov sakson yoshni qarshilamoqda. Sharqshunos tarixchi, siyosatshunos olim Guliston davlat universitetidagi 51 yillik faoliyati davomida kafedra mudiri, dekan, prorektor lavozimlarida ishladi. Ustoz 120 dan ortiq ilmiy-ommabop risolalar, maqolalar muallifi. Bundan tashqari, ingliz, rus, afg'on, dari tilllarini mukammal biladi. Ustozning "Dunyo. Siyosat. Jamiyat" kitobi 11 marta qayta to'ldirilib, nashr qilindi. Olimning ilm yo'lidagi ishlari davlatimiz tomonidan munosib baholanib, birinchi darajali "Mehnat faxriysi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

*Ustoz, muhtasham umringizning 80 yillik to'yi muborak bo'lsin!*

*Farzandlari va shogirdlari*

Sevimli "Ma'rifat" gazetangizga obuna bo'ling!



## "MA'RIFAT" GAZETASIGA 2022-YIL UCHUN OBUNA BO'LISH TARTIBI:

☑ Endi tahririyatimizga murojaat qilib, to'g'ridan-to'g'ri shartnoma bilan obuna bo'lishingiz mumkin.

**Telefonlar: (71) 233-56-36,**
**(71) 233-42-92,**
**(71) 233-85-09.**



Bunda sizga telegram yoki elektron pochta orqali obuna blankasi jo'natiladi.

☑ 149 indeksi orqali imtiyozli, arzonlashtirilgan narxda obuna rasmiylashtirishingiz mumkin. Faqat bunda to'liq bir yilga obuna bo'lishingiz kerak bo'ladi. Bu indeks orqali bir yillik obuna narxi Toshkent shahri uchun **370 760** so'm. Viloyatlar uchun **419 120** so'm

☑ **150** indeksi orqali 1 yildan kam muddatga ham (3 oy, 6 oy) obuna bo'lishingiz mumkin. Bunda 1 yillik obuna narxi Toshkent shahri uchun **447 005**, Viloyatlar uchun **505 310** so'm.

☑ Clik va Payme ilovalari orqali ham onlayn tarzda obuna bo'lish imkoniyati bor. Ilova orqali obuna bo'lsangiz yuqorida ko'rsatilgan narxdagi summani (Toshkent shahri uchun **370 760** so'm. Viloyatlar uchun **419 120** so'm) kiritasiz. Obuna bo'lganingizdan so'ng **71 233-56-36, 71 233-42-92, 71 233-85-09** telefon raqamlari orqali tahririyat bilan bog'lanishni unutmang.

Bizga to'lov qilinganligi haqida fotoma'lumot va gazetani yetkazib berish manzilini yuborishingiz kerak.


Endi Payme va CLICK orqali to'lov qilib obuna bo'ling!

Qo'shimcha xizmat to'lovlarisiz tahririyat bilan to'g'ridan-to'g'ri obuna shartnomasini tuzing.

## Gazetalarimizga 2022-yil uchun obuna davom etmoqda!



Ma'rifat

Учитель Узбекистана




facebook.com/marifat.uz
t.me/marifatziyo
www.marifat.uz
(71) 233-56-36
(99) 040-00-76
(71) 233-42-92



Ma'rifat

TA'SIS ETUVCHILAR:
O'zbekiston xalq ta'limi vazirligi,
O'zbekiston oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

**Bosh muharrir:** Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan. Indeks: 149, 150. V-4904. Tiraji 7218.
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan, qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

**TELEFONLAR:**
qabulxona – (71) 233-50-55;
kotibiyat – (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi – (71) 233-42-92 (faks), (71) 233-56-00.

ISSN 2010-6416

"Ma'rifat"dan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

**MANZILIMIZ:**
100083, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Web-site: www.marifat.uz

**Dizaynerlar:** Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.
**Navbatchi muharrir:** Humoyun Quvondiqov.
**Navbatchi:** Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

123456